

**TOSHKENT SHAHRIDAGI SINGAPUR MENEJMENTNI
RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**Jumayeva Sh. B., Mammetova B. I.,
Mamatkulov I. A., Ishanxodjaeva D. A.**

**TURIZM:
PARKENTGA XUSH KELIBSIZ!!!**

(ilmiy-ommabop kitob)



Toshkent – 2023

KBK 65.433 (50')

75.81 (50')

P 21

Parkent - turizm makoni [Matn] / Management Development Institute of Singapore in Tashkent .-Toshkent: Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, 2023.- 101 b.

Mualliflar: Jumayeva Sh.B., Mammetova B.I., Mamatkulov I.A., Ishankhodjaeva D.A.

Muharrir*: Jumayeva Sh.B.

*Matn plagiat va grammatika uchun tekshirildi. Mualliflar kitob mazmuni uchun to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

Ushbu nashrning hech bir qismini Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti ruxsatisiz har qanday shaklda, elektron yoki mexanik, shu jumladan fotokopi, yoki axborotni saqlash va qidirish tizimi yordamida qayta ishlab chiqarish yoki uzatish mumkin emas.

© Toshkent shahridagi Singapur Menejmentni Rivojlantirish Instituti, 2023

ISBN – 978-9943-9520-3-4

MUNDARIJA

I. So‘zboshi	3
II. Parkent tumanining geografik joylashuvi, iqlimi va tabiati	7
III. Parkent tumani tarixi	15
3.1. Parkent – moziy sahifalarida.....	15
3.2. Toshga bitilgan dostonlar.....	19
IV. Turizm – barqaror iqtisodiy taraqqiyot omili	23
4.1. Ziyorat turizmi.	33
4.2. Parkent ziyoratgohlari	47
4.3. Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida ziyorat turizmining qayta tiklanishi (Parkent tumani misolida).....	50
4.4. Ekoturizm.....	52
4.5. Chotqol biosfera qo‘riqxonasi.....	59
4.7. So‘qoqdagi o‘rmon xo‘jaligi.....	61
4.8. Fizika-quyosh instituti.....	63
4.9. Qishloq turizmi (agroturizm).....	67
4.10. Gastronomik turizm.....	79
4.11. Enoturizm.....	83
4.12. Parkent tumanidagi dam olish maskanlari faoliyatidan.....	85
V. Ilova	90
VI.Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati	96

SO‘ZBOSHI



*So‘lim va betakror
Chirchiq vohasi, Olmaliq
va Ohangaron
kengliklarida joylashgan
Toshkent viloyati, bu
ko‘hna diyor har qanday
yuksak ta‘rifga
munosibdir. Bu zaminning
unumdor tuprog‘i, qut-*

*baraka yog‘iladigan dala va bog‘lari, oltin, kumumsh, mis, marmar, ko‘mir kabi
zaxiralarga boy konlari, eng muhimi, mehnatkash, bag‘rikeng, ko‘p millatli xalqi
vatanimiz ravnaqiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda.*

Shavkat Mirziyoyev,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Ko‘hna va hamisha navqiron Toshkent vohasi nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyodagi eng yirik mintaqalardan biri hisoblanadi. Qulay geografik joylashuvi, o‘ziga xos fauna va florasi, iqlimi hamda yer osti boyliklari vohaning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydi. Ko‘chmanchi chorvachilik hamda o‘troq dehqonchilik xo‘jaliklari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, savdosotiq va madaniy aloqalari markazi hisoblangan, Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan voha o‘ziga xos tamaddun tarixiga ega. Toshkent vohasining qadim va shonli tarixi to‘g‘risida antik hamda o‘rta asrlarga oid yuzlab qo‘rg‘onlar, shaharchalar va me‘morchilik yodgorliklari ma‘lumot beradi.

O‘ziga xos iqlimi, tabiati, boyliklari va qadim o‘tmishiga ega Toshkent vohasi mamlakatda turizm industriyasi salohiyatiga ko‘ra, yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Tamaddun tarixiga ega bu qadimiy makon turizm industriyasini ichki va tashqi ko‘rinishlarda keng rivojlantirish uchun qulay hududlardan biri hisoblanadi. Soha tahlilchilari tomonidan sayyohlik – zamonaviy iqtisodiyotning

istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida ta'kidlanmoqda. Zero, turizm dunyo miqyosida neft-gaz sohasidan keyin serdaromad sohalardan biri sifatida baholanmoqda. Mamlakatimiz mazkur sohani rivojlantirish imkoniyatlari yuqori bo'lgan davlatlardan biri hisoblanadi. Birinchidan, turizm – boshqa sohalar kabi xom ashyo, ishchi kuchi, mablag' kabi ko'plab resurslarni doimiy talab etmaydi. Ikkinchidan, uning uchun zamonaviy talablarga mos, zarur infratuzilma borligi, uchinchidan, mamlakatimiz iqtisodiyoti taraqqiyotiga foyda keltiruvchi barqaror taraqqiyotga ega soha hisoblanadi. Beshinchidan, turizm xizmat ko'rsatishga asoslangan iqtisodiyotni yaratish va rivojlantirishni rag'batlantiradi. Mana shu sababli keyingi yillarda turizm sohasini isloh etish bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda. Ichki turizm bilan bir qatorda xorijiy sayyohlar sonini oshirish, mazkur sohadagi mavjud imkoniyatlardan keng foydalanish bugungi kunda mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda jahon siyosiy maydonlaridagi voqealar, insonlar turmush tarzi va iqtisodiy ahvolidan yaxshilanishi turizm sohasining rivojlanishiga xizmat qilmoqda.



1-rasm. Eng jozibali deb tan olingan 10 ta mamlakat.

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan pirovard maqsad, mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada

rivojlantirish va xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga xizmat qilishdan iboratdir.

O‘z o‘rnida shuni ham e’tirof etish kerakki, sayr-sayohatlar (ekskursiya) xalqaro miqyosdagi eng ommaviy-madaniy tadbirlardan biridir. Tarixiy madaniy obidalarni tomosha qilish, ularning tarixi bilan yaqindan tanishish, zamonaviy qurilishlar, hashamatli uylar, chiroyli bog‘-rog‘lar, turli millat hamda elatlarning urf-odatlarini o‘rganish kabi sohalar har doim sayohatchilarning diqqat-e’tiboridan keng joy oladi. Bunda ulovlar (transport)dan foydalanish, moliyaviy xarajatlar, yashash joylari hamda oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, madaniy xizmatlar ancha ustuvor tashkiliy faoliyat hisoblanadi. Bu kabi imkoniyatlarning mavjudligi mamlakatimizning turizm salohiyatini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Toshkent viloyati O‘zbekiston Respublikasining poytaxti – Toshkent shahriga yaqin hudud bo‘lganligidan ko‘pchilik mehmonlarning qiziqishiga sabab bo‘lib kelmoqda.

Ommaviy piyoda yurish sayohatlari asosan, tog‘li manzaralar, daryo, ko‘l, suv omborlari sohillari kabi xushmanzarali joylarda tashkil qilinadi. Bunday maskanlar Toshkent viloyati, xususan, Parkent tumanida juda ko‘p. Bunda tabiat bilan tanishish, so‘lim, go‘zal manzarali joylarda tunash, ovqatlanish, jismoniy mashqlar, turli amaliy harakatlarni bajarish orqali chiniqish kabi sinovlarni olib borsa bo‘ladi.

Jumladan, Parkent tumani hududida O‘zbekiston Respublikasi FAgA qarashli “Quyosh” majmuasi, Materialshunoslik instituti, Seysmologiya institutining magnitosfera rasadxonasi, “Koinot” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining “Nevich” eksperimental bazasi, So‘qoq gidromeliorativ tog‘-o‘rmon xo‘jaligi, Chotqol biosfera qo‘riqxonasi joylashgan.

Shuningdek, Parkent tumani o‘zining so‘lim dam olish maskanlari bilan mashhur. Bu yerda “So‘qoq”, “Kumushkon”, “Sumcha”, “Qizilsoy” kabi mavsumiy va doimiy dam olish uylari, 10 dan ziyod bolalar yozgi oromgohlari hamda bir qancha korxonalarining chorbog‘lari joylashgan. Dam olish uylari yil


davomida viloyatlar va xorijdan kelgan 10 mingdan ortiq kishiga xizmat ko'rsatadi¹. Shuning uchun ham Toshkent viloyati, xususan, Parkent tumanida ichki va tashqi turizmni rivojlantirishda uning tarixi, tabiati, urf-odatlarini, iqlimi hamda boshqa bir qanch jihatlarini o'rganish, undagi xizmatlar va servisning samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biridir.

So'nggi yillarda muhtasham madaniy obyektlar, mehmonxonalar, dam olish maskanlari qurilib, transport-logistika, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari yaxshilanmoqda. Ularning zamon talablari darajasida rekonstruksiya qilinishi Parkent tumanida yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur risola Toshkent viloyati Parkent tumani tamaddun tarixini o'rganish, targ'ib etish, shuningdek, ko'p millatli xalqining milliy-madaniy merosini mamlakatimiz, shu bilan bir qatorda, xorijda keng targ'ib etish, hududning turistik salohiyatini keng ommaga tanishtirish maqsadida tayyorlandi.

¹ <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

II. PARKENT TUMANINING GEOGRAFIK JOYLASHUVI, IQLIMI VA TABIATI



2-rasm. Parkent tumani xaritasi.



Parkent tumani Toshkent shahridan 48 km sharqda, Oʻrta Tyanshanning Chotqol tizmasining gʻarbiy etaklarida joylashgan boʻlib, hududi togʻlar bilan oʻralgan. Tuman shimol, sharq va janubda Boʻstonliq, Ohangaron, gʻarbda esa Yuqori Chirchiq, qisman janubi-gʻarbiy tomondan Quyi-Chirchiq tumanlari bilan chegaradosh.

3-rasm. Parkent tumani tabiati.

Yer yuzasi rel'efi g'arbdan sharqqa yuqorilab borib, eng baland nuqtasi – 3627,8 m (Qizilnura cho'qqisi)ni tashkil etadi. Rel'efi tog' oldi tekisligi, adir va tog'lardan iborat. Tekislik qismida bo'z tuproq, adirlarda to'q bo'z tuproq, tog'li joylarda jigar rang tog'-o'rmon tuproq turlari tarqalgan.



4-rasm. Tumanning umumiy yer fondi.

Parkent tumani iqlimi Toshkent-Mirzacho'l keskin kontinental (quruq) iqlim zonasiga kiradi. Hududning tog'lar bilan o'ralganligi, uning bag'rida soylar va zilol buloqlarning ko'pligi o'ziga xos mo'tadil mikroiqlim sharoitini vujudga keltirgan.



5-rasm. Parkent tog'lari.

Parkent tumaniga quyosh yil mobaynida 3000 soatdan ko‘p vaqt nur sochib turadi. Iqlimi tog‘ oldi va tog‘ iqlimiga xos, nisbatan kontinental. Havoning yillik o‘rtacha temperaturasi 12°. Yillik yog‘in 536 mm. Vegetatsiya davri 180 kun.

Tog‘ yon bag‘irlarida bir qancha g‘orlar mavjud. Soy va buloq ko‘p. Chirchiq daryosining chap irmoqlari: Parkentsoy, Boshqizilsoy va Oqsoqotasoy tumanning asosiy suv manbalari bo‘lib, ularning boshlanish joyida sharsharalar mavjud.

Parkentsoy daryosi tumanning eng yirik daryolaridan biridir. Daryo suvlarini Chotqol tog‘ining g‘arbiy, janubi-g‘arbiy tog‘ tizmalaridan yig‘adi. Mazkur daryo suvlari bir paytlar Chirchiqqa quyilgan bo‘lsa, bugungi kunda Qorasuv kanali orqali sug‘orish tarmoqlariga bo‘lib yuboriladi. Parkentsoyning suv yig‘ilish maydoni 377 kv.km., uzunligi 60 km dan ortiq.



6-rasm. Boshqizilsoy daryosi.

Boshqizilsoy – Parkent tumaning janubi-sharqiy qismidan oqib o‘tuvchi yirik daryo bo‘lib, u o‘z suvini sharqda Qizilnura va Qo‘rg‘ontosh tog‘laridan boshlab yig‘adi. Suv havzasining maydoni 100 kv km.dan ortiq. Tuman hududidagi uzunligi 30 km.ni tashkil etadi.

Oqsoqotasoy Chotqol tog‘ tizmalarining janubi-g‘arbiy hududidan boshlanib, G‘azalkent-Barraj yaqinida Chirchiq daryosiga chapdan kelib quyiladi. Suv yig‘ish havzasi 453 kv.km, uzunligi 48 km.dan iborat².



7-rasm. Parkent daryolarining boshlanish nuqtasi.




mansub 1000 dan ziyod o‘simlik turi qayd etilgan. Tog‘ etaklarini o‘tloqlar, yon bag‘irlarini archazorlar qoplagan. Ba’zi joylarda yongokzorlar, tog‘ pistasi, na’matak,

O‘simlik dunyosi: Parkent tumani hududi o‘tloqzor, o‘rmonzor va butazorlar bilan qoplanganligi bois o‘simlik hamda hayvonot dunyosiga boy hududlardan biridir. Tuman hududida 70 oilaga



² Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. – Тошкент: О‘qituvchi, 2006. – Б. 9.

olcha, olma, zirk, do‘lana va boshqa o‘simliklar o‘sadi (shundan 200 ga yaqini dorivor o‘simliklardan iborat).



8-rasm. Parkent tumani o‘simlik olami.

Adirlarda efemer va efemeroidlar hamda ko‘p yillik o‘simliklar tarqalgan. Ayniqsa, dukkakedoshlar, labguldoshlar va murakkabguldoshlar oilasiga mansub o‘simlik turlari nihoyatda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shuningdek, tuman hududida tog‘ o‘simliklari ham ko‘p uchraydi.

Daryolarning yuqori oqimi vodiylarida terak, tol, kamxastak, jingil, olcha kabi daraxtlar o‘sadi. 2400 m balandlikdan yuqorida joylashgan tog‘ cho‘lida O‘zbekistonning “Qizil kitobi”ga kiritilgan Grey va Kaufman lolalari, sovunildiz, Piskom piyozi uchraydi.



9-rasm. Parkent tumani hayvonot olami.

Hayvon olami: Tuman hududida yovvoyi hayvonlardan 200 turga yaqin qush, 33 tur sut emizuvchi, 11 tur sudraluvchi, 4 tur baliqlar yashaydi. Parrandalar orasida 100 dan ortiq chumchuqlar va 25 dan ortiq yirtqich qushlar guruhlar mavjud. Ulardan quzg‘un, pakana burgut, qora kalxat O‘zbekiston “Qizil kitob”iga kiritilgan. Sut emizuvchilardan bo‘rsiq, cho‘l mushugi, suvsar, oqsichqon, larcha, bo‘ri, qobon, al-qor, bug‘ular uchraydi. Kemiruvchilardan jayra, sug‘ur,

yumronqoziq, o‘rmon olmaxoni, quyon va boshqalar uchraydi. Tulki va bo‘rsiq ham hududda ko‘p ko‘zga tashlanadi.



10-rasm. Parkent tog‘lari.

Parkent tumani 1920-yillarda tashkil topgan bo‘lib, 1938-yilda Toshkent viloyati tarkibiga kiradi. Tuman 1959- yil 25- iyunda tugatilgan (Yuqori Chirchiq tumani tarkibiga qo‘shib yuborilgan), 1979- yilda qaytadan tashkil etilgan.

PARKENT – Toshkent viloyati Parkent tumanidagi yirik shaharlardan biri bo‘lib, 1984-yildan tumanning ma‘muriy markazi hisoblanadi.

Tuman ma‘muriy jihatdan 25 ta aholi punktidan iborat. Yirik aholi yashaydigan punktlar qatoriga aholisi 5000 kishidani ziyod bo‘lgan Zarkent, Nomdanak, So‘qoq, Changi, Hisorak, Qoraqalpoq; aholisi 1000 kishidan ziyod bo‘lgan Boyqozon, Bo‘ston, Gulbog‘, Navdak, Nevich, Navbahor, Kumushkon, Sanganak, Samsarak, Shampan, Qirg‘izovul; aholisi 1000 kishigacha bo‘lgan Achchisoy, Chotqol, Chavkanchak, Juduruq, Qirg‘iz qishloqlari kiradi. Yaqin

temir yo‘l stansiyasi va viloyat markazi (Toshkent shahri)dan 47 km. Aholisi 49,1 ming kishidan ziyod (2009). Shahar aholisi va xo‘jaliklari Parkentsoy va Parkent kanalidan suv oladi. Parkentda 38 ishlab chiqarish korxonasi, xususan, Parkent g‘isht zavodi, Parkent sharobi OAJ, qo‘shma korxonalar, 22 kichik korxonalar, firmalar, non zavodi, dehqon va buyum bozorlari bor. 17 ta umumiy ta‘lim maktablari, musiqa va sport maktablari, ixtisoslashgan maktab, kasb-hunar kolleji, markaziy va bolalar kutubxonalari, madaniyat uyi, “Kichkintoy” bolalar xiyoboni, “Onalar va bolalar bog‘i”, madaniyat va istirohat bog‘i, 10 ming o‘rinli sport maydoni, markaziy kasalxonalar, poliklinika, 10 dan ziyod dorixona, 75 savdo, 145 maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchasi mavjud. Aholiga qulaylik yaratish maqsadida Parkent – Toshkent yo‘nalishida avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Tumanda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangiliklar va erishilayotgan yutuqlar to‘g‘risida “Parkent tongi” gazetasi nashr etiladi.

Parkent tumanining Toshkent shahri yaqinida joylashganligi, rivojlangan magistral yo‘llari, xushhavo iqlimi, betakror tabiati, sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, malakali mutaxassislar zaxirasi, muhandislik inshootlari bilan yetarli darajada ta‘minlanganligi bu yerda raqobatbardosh, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo‘shma korxonalar qurish, sayyohlik va dam olish maskanlari hamda turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini beradi.



11-rasm. Parkent tumaniga kirish darvozasi.

III. PARKENT TUMANI TARIXI: PARKENT – MOZIY SAHIFALARIDA

Toshkent vohasining sharqiy qismida joylashgan Parkent tumani hududi tog‘lar bilan o‘ralgan bo‘lib, Parkentsoy, Boshqizilsoy, So‘qoqsoy va Oqsoqotasoy irmoqlaridan suv ichib, baland tog‘lari, o‘rmonzor va butazor bilan qoplangan. O‘ziga xos qulay iqlim sharoiti, boy o‘simlik va hayvonot olami mazkur hududning ibtidoiy ovchilar, terimchilar hamda baliqchilar tomonidan qadimgi tosh davridayoq o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lgan. G‘or va ungurlardagi ibtidoiy makonlar, ov qurollari hamda qoyatoshlarda aks etgan ibtidoiy san‘at yodgorliklari bo‘lgan petrogliflar bu yerda hayot kechirgan ibtidoiy odamlar va ularning turmush tarzidan darak beradi. Janubiy Chotqol tog‘ tizmasida topilgan g‘orlarda insonlarning qadimiy izlari topilgan. Paleolit davriga oid arxeologik topilmalar bu yerda insonlar qadimgi tosh asridan yashab kelganliklari to‘g‘risida dalolat beradi.

Jumladan, 1963- yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti Chotqol-Qurama guruhi tomonidan Nevich qishlog‘i yaqinida qora slanesdan silliqlangan tosh qurollar topildi. Arxeologlar tomonidan Beldirsoy, Oqsoqotasoy va Qizilsoy sohillari, So‘qoq hamda Nevich qishloqlari atroflarida ibtidoiy ovchilarning izlari topilgan. Shuningdek, soylarning pana burilishlari, tog‘ etaklarining qulay maydonlari va katta-kichik ungurlarda tosh qurollari qoldiqlarini uchratish mumkin. Bunday joylar o‘sha davrdagi ibtidoiy davr ovchilarining makonlari bo‘lganligiga shubha tug‘dirmaydi. Mazkur makonlarda ovchilar ov qurollarini charhlash va yangilarini yasash bilan shug‘ullangan³.

Arxeologik izlanishlar natijasida topilgan shahar-qo‘rg‘onlar hududda chorvador qabilalar bilan bir qatorda o‘troq dehqonlar istiqomat qilganligidan dalolat beradi. Dehqonchilikning rivojlanishi natijasida shaharlar vujudga kela boshlaydi.

Yurtimizni bir qator qadimshunos olimlarining arxeologik tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, shuni ta’kidlash mumkinki, tuman hududida joylashgan Zarkent va Nomdanak qishloqlarida birinchi doimiy turar joylar taxminan 3000 yillar oldin,

³ Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани.... – Б. 45.

Parkent shahrida esa birinchi muhim turar joylar miloddan avvalgi II–I asrlarda paydo boʻlgan. Dastlabki shahar bu yerda milodiy I ming yillikda shakllana boshlagan. Ushbu shahar Chirchiq daryosi boʻyida qad koʻtarib, atroflari ichki va tashqi devorlar bilan oʻralgan, baland hamda mustahkam qoʻrgʻon shaklida boʻlgan.

Xususan, Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy al-Istahriyning “Al-masolik val-mamolik (“Yoʻllar” va mamlakatlar kitobi)”, Abdulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Xurdodbehning “Al-masolik val-mamolik (“Yoʻllar va mamlakatlar kitobi)” turkumidagi geografik asarlarda Parkent hamda Zarkent shaharlarining dastlabki nomi Farkat, Zaranket shaklida uchraydi. Masalan, Abdulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh ibn Xurdodbehning “Al-masaalik va-l-mamaalik” asarida Oʻrta Osiyo hududdidan oʻtgan karvon yoʻllari tasvirlanganda, Farkat shahrini savdo-sotiq rivojlangan yirik shaharlar qatorida qayd etilgan va shunday taʼriflangan: “Shosh (Toshkent) viloyatiga boradigan yoʻlning tavsifi quyidagichadir: Zomindan Xovosgacha 6 farsax, Xovos (hozirgi Sirdaryo viloyati tarkibidagi Xovos shahri)dan Shosh daryosi (Sirdaryo)gacha 5 farsaxdir. Agar daryodan oʻtsang, u yerdan daryo sohili yaqinida joylashgan Banokatgacha 4 farsax, Bonakat bilan Farnkent orasi, Turk (Chirchiq) daryosi orqali oʻtilganda 8 farsax”.

Arab sayyohi va geografi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasiy (947–1000) oʻzining “Mamlakatlarni oʻrganish uchun eng yaxshi qoʻllanma” kitobida Shosh viloyatidagi bir qancha shaharlarni sanab, ular orasida Farket va Jinonjikat (Chinochkat) shaharlarini alohida tilga olgan. Al-Muqaddasiy ushbu shaharda imoratlar yogʻoch va xom gʻisht (yoki guvala)lardan, boshqacha qilib aytganda, sinchli qilib qurilganligini alohida taʼkidlagan. Shu bilan birga, unda shimoldagi qoʻshni hududlarda yashovchi koʻchmanchi aholining mol ayirboshlash va savdo-sotiq ishlari olib borilishining ham shahar rivojida maʼlum hissasi bor edi. Ayni vaqtda aholi mayda hunarmandchilik, oʻtroq dehqonchilik va

chorvachilik bilan shug'ullanganligi qayd etilgan⁴. Jumladan, Zarkenttepa (Kalai balo, Qalmoqtepa kabi nomlar bilan ham ataladi) Zarkentsoyning chap qirg'og'idagi Zarkent qishlog'ida joylashgan bo'lib, 1903- yilda V. V. Bardol'd tomonidan aniqlangan, 1963- yilda Chotqol-Qurama otryadi tomonidan o'rganilgan mazkur yodgorlik VII–XIII asrlarga oid yirik shahar bo'lgan⁵.

X–XI asrlarda bitilgan sayohatnomalarda Shosh va Iloq vodiysida 50 yaqin shaharlar nomlari qayd etilgan. Tadqiqotchilar, arab sayyohlari va geograflari yozib qoldirgan manbalarga asoslanib, yirik shaharlarning bunyod etilish jarayonidagi o'ziga xos taraqqiyot tadriji yuzasidan tasavvur hosil qilish mumkin. Zero, X asrda Chochda 50 ta, butun Movarounnahr hududida esa 200ta shahar mavjud bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan⁶.

Jumladan, tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlar va olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Toshkent vohasida o'rta asrlarda mavjud bo'lgan shaharlar aniqlanib, ushbu aholi maskanlari o'lkaning siyosiy, iqtisodiy hayotida, savdo-sotiq aloqalarida muhim o'rin egallagan. Xususan, Banokat (keyinchalik Shohruhiya), Xarashkent, Unjakent, Chinochkent (Chinoz), Shuturkent, Danfag'akent, Zaltikent, Banunket, Binket (Toshkent), Nujket, Jabg'uket, Farnket (Parkent), Zarankent (Zarkent), Nomalvonak, Nuket, Tunket, Mozortepa, Beshtepa, Munchoqtepa, Kuhisim, Abrlig' (Ovlig'), Namudlig', Dahket, Tunket, Bisket (Piskent), Samsirak kabi mustahkam va obod shaharlar hisoblangan⁷.

Parkent tumani hududida ko'plab tepaliklarni ham ko'rish mumkin. Mazkur tepaliklar xom g'ishtdan qurilgan qo'rg'onlar bo'lib, gavjum aholi turar joylari hisoblangan. Turli sabablarga ko'ra, tanazzulga uchragan qo'rg'onlar buzilib, o'rnida sun'iy tepaliklar paydo bo'lgan. Hisoraktepa, Chilontepa, Nomsiztepa, Sumchatepa, Shavkattepa, Zarkenttepa, Yumaloqtepa, Eskitepa, Challaktepa, Sanginaktepa kabi tepaliklar fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. Jumladan,

⁴ Жўраев З., Масалиева О. Заркентдаги авлиё ота. – Тошкент, 2015. – Б. 16.

⁵ Буряков Ю. Ф., Касымов М. Р., Ростовцев О. М. Археологические памятники Ташкентской области, – Ташкент: Фан, 1973. – С. 70.

⁶ Эшмирзаева З. А. Шош ва Илоқ йўлларида. Тошкент вилояти зиёратгоҳлари ва қадамжолари. – Тошкент: Press Oltin Meros, 2020. – Б. 8.

⁷ Буряков Ю. Ф. Историческая топография древних городов Ташкентского оазиса. – Ташкент, 1975. – С. 13.

Eskitepa yodgorligi – tarixiy shahar Nomdanak shahristoni bo‘lib, mo‘g‘illar istoli sabab xarobaga aylangan. 1963- yilda Chotqol-Qurama otryadi tomonidan I–XIII asrlarga oid arxelogik yodgorlik ekanligi aniqlangan.

Qulay geografik joylashuv va iqtisodiy salohiyati yuqori bo‘lgan Parkent hududining tarixiy rivojlanishi Toshkent vohasi tamaddun tarixi bilan uyg‘unlikda davom etadi. Chorvador va ziraotkor aholiga ega mazkur hudud dastlab yunonlar, so‘ngra Qang‘ davlati, keyinchalik Eftalitlar va Turk xoqonligi, 713- yilda Qutayba ibn Muslim boshchiligida arablar tomonidan istilo etiladi. IX–X asrlarda dastlab Xuroson hukmdorlari noiblari bo‘lgan somoniylar keyinchalik davlatni mustaqil idora eta boshlaydi.

X asr oxirlarida Choch-Iloq hududida Qoraxoniylar hukmronligi o‘rnatilib, XIII asr boshlarida Toshkent vohasi Xorazmshohlar davlati tarkibiga kiradi, XIII asrda mo‘g‘ullar tomonidan istilo etilishi natijasida gullab-yashnagan shaharlar vayron qilinib, xarobazorlarga aylantiriladi, ustaxonalar va aholi turar joylari talanadi, hunarmandlar qul qilinadi.

O‘rta asrlarga oid manbalarda Toshkent vohasi aholisi bosqinchilarga qattiq qarshilik ko‘rsatganliklari qayd etilgan. Mo‘g‘ul xonlari o‘rtasidagi o‘zaro urushlar natijasida savdo-sotiq va ishlab chiqarish tanazzulga uchraydi. Hokimiyat tepasiga Sohibqiron Amir Temurning kelishi hamda markazlashgan davlatning tashkil topishi natijada vayron bo‘lgan hududlar tiklanib, savdo-sotiq rivojlaniga zamin yaratiladi.

Amir Temurning vafotidan so‘ng shahzodalarning o‘zaro taxt uchun kurashlari davrida Sirdaryo bo‘yi hududlari mo‘g‘illar tomonidan istilo etiladi, temuriy shahzoda Xalil Sultonning sa‘yi-harakatlari bilan Toshkent vohasi hududlari qaytarib olinib, Temuriylar merosiga qo‘shib idora etilgan. XV asrning ikkinchi yarmida Toshkent vohasi dastlab Abulxayrxon, so‘ngra temuriy shahzodalar, XVI asrning boshlarida Shayboniylar hukmronligi o‘rnatilgunga qadar Yunusxonga tobe bo‘ladi. Voha XVI asrning ikkinchi yarmida Abdullaxon II qo‘liga o‘tadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Toshkent vohasi XVIII asrda mustaqil

beklik sifatida faoliyat olib boradi. Chor Rossiyasi istilosiga qadar Parkent hududi Qo‘qon xonligi tarkibiga kirgan edi.

Parkent tumani Toshkent vohasidagi qadimiy hududlardan biri bo‘lib, u o‘lka iqtisodiy, siyoiy va madaniy hayotida muhim o‘rin tutgan. Parkentning boy tarixi bugungi kunga qadar ko‘plab tarixchi olimlar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda. Qator ilmiy adabiyotlarda Toshkent vohasi tarixi uyg‘unlikda yoritib berilgan. Jumladan, V. V. Bartol’d, G. V. Grigorev, S. B. Lunina, Z. I. Usmonov, D. P. Varxotova, Y. F. Buryakov, M. R. Qosimov, O. M. Rostovsev, G. Dadaboyev, O. Bo‘riyev, A. R. Muhammadjonov, D. Alimova, O. Pugachenkova, X. Bo‘riyeva, Z. M. Jo‘rayev, O. Masaliyeva, Z. A. Eshmirzayeva, S. Husomiddinov, M. Shermatov, K. A. Kraxmal kabi olimlarning tadqiqotlarida Parkent tumani tarixi batafsil yoritib berilgan.



12-rasm. Toshkent vohasidan topilgan sopol buyumlar⁸.

O‘tmishi qadim zamonlarga borib taqaluvchi Parkent tumani toponimikasi ham o‘ziga xos tarix va etimologik ildizlariga ega. Xalqona qarashlarga ko‘ra, “Parkent” so‘zidagi “par” – juft, “kent” – aholi turar joyi, qishloq, shahar ma’nolarini anglatadi. Ya’ni, bu yerda soy bo‘yidagi ikki qishloq ma’nosini anglatadi. Yana bir xalqona qarashlarda esa Parikent – “Parilar shahri” deb izohlangan.

⁸ <https://shosh.uz/tashkent-2200-pozdnesrednevekovaya-polivnaya-keramika-tashkenta-i-tashkentskogo-oazisa/>

TOSHGA BITILGAN DOSTONLAR



13-rasm. Boshqizilsoy petrogliflari.

Markaziy Osiyo koʻhna sanʼatining muhim qismi hisoblangan mintaqadagi tarixiy obidalarning ushbu turi Gʻarbiy Tyanshanda eng koʻp tarqalgan yodgorliklari sirasiga kirib, bugungi kungacha topilgan ularning umumiy soni oʻn mingdan oshadi. Mazkur bebaho boylik nafaqat miqdori, balki xronologik qamrovi, mavzu rang-barangligi, syujetlarining oʻziga xosligi, yuksak badiiy darajasi va mahobati bilan ham ajralib turadi.

Quyida va oraliq tosh asriga oid madaniy yodgorliklar qatoriga Koʻhitangdagi (Oʻzbekiston janubida) Zarautsoy, Fargʻonadagi Suratli soy va Soʻx qishlogʻi yaqinidagi qoya suratlari, Samarqand yaqinidagi Oq soy va Ilon Soy, Qirgʻizistondagi Toshmalisoy va yana bir qator boshqa soy va togʻlardagi qoyalarda topilgan tasvirlar kiradi. Bu suratlarda Oʻrta Osiyo hayvonot dunyosiga xos boʻlgan togʻ echkilari, arxarlar, qoʻtos, baʼzan ot hamda oʻsha davrlarda yashagan odamlar tasvirlari oʻz aksini topgan. Bu chiziqli tasvirlar sekin-asta turli

siniq va aylanasimon shakllarga o‘tib, ilk naqsh elementlari paydo bo‘la boshlaydi⁹.

Toshkent atrofidagi ayrim qoyatosh suratlari Markaziy Osiyodagi petrogliflar orasida syujeti va kompozatsiyasi bilan betakror hisoblanadi. Toshkent viloyatida olimlar tomonidan ham umumiy, ham o‘ziga xos jihatlarga ega ko‘hna qoyatosh surat va yozuvlarning boy manbalari aniqlangan. Xo‘jakent, Qoraqiyasoy, Boshqizilsoy, Chotqol, Parokandasoy, Ohangaron kabi hududlardan topilgan petrogliflar shular jumlasidandir.



14-rasm. Beldirsoy qoyatosh suratlari.


Tumaning sharqiy qismi, Boshqizilsoyning o‘ng qirg‘og‘ida, Parkentdan 25–30 km janubiy-sharqda Nevich qishlog‘i yaqinida joylashgan Boshqizilsoy qoyatosh suratlari 1934- yilda qadimshunos olim A.Mirmuxammedov tomonidan aniqlangan, 1965- yilda Ye. G. Pruger tomonidan o‘rganilgan. Arxeolog olim A. Kabirov tomonidan Chotqol tog‘ tizmalari hududida o‘ziga xosligi bilan ajralib turadigan 600dan ortiq yovvoyi va uy hayvonlari, odamlar, turli ramzlar aks etgan suratlar aniqlangan. Ushbu suratlar eramizdan oldingi I ming yillik boshlaridan

⁹ Ахмедов М.Қ. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи -Т.: “ЎЗБЕКИСТОН”, 1995. 6-бет.

eramizning I ming yilligi o'rtalari bilan davrlashtiriladi. Mazkur qoyatosh suratlari tik, yonlama va egik shakldagi qoyatoshlarning silliq yuzasiga o'yib chizilgan. Ushbu topilmalar mavzu, ijro uslubi va suratlarning hajmi jihatdan g'oyat rang-barang bo'lib, ular orasida qurbonlik keltirish va boshqa rasm-rusmlar aks etgan sahnalar keng tarqalgan. Bu yerdagi suratlarda samoviy timsollar ham qayd etilgan. Yakka va jamoaviy ov qilish, hayvonlarni haydash, qoplonlarning tog' echkisiga hamlasi, raqs sahnalari ham uchraydi. Ayniqsa, yirtqich hayvonlarning jozibali aks etgani diqqatni tortadi.

Petrogliflar tahlili alohida suratlar va suratlar guruhida ham izlarning siljiganidan dalolat beradi. Xususan, Boshqizilsoydagi uskunalardan qolgan izlarning bir xili deyarli uchramaydi. Ushbu holat uskuna shakli va berilayotgan zarba kuchi bilan izohlansa kerak. Ko'pgina qoyatosh suratlarida hajmi kichkina, aylana, to'pcha va egri-bugri shakldagi izlar ko'zga tashlanadi. Va aksincha, yirik, chuqur va uzunchoq shakldagi izlar ham uchraydi. Bularning barchasi suratlarni chizish uchun metallardan yasalgan uskunalar qo'llanganligini tasdiqlaydi. 1982-yilda "Koinot" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining Nevich tajribagohini qurish jarayonida shu atrofda qadimiy qabriston, qurollar va sopol buyumlar topilgan¹⁰.

Xulosa qilib aytganda, Toshkent vohasi petrogliflari o'zining badiiy va ilmiy qiymati bilan Markaziy Osiyo qoyatosh san'ati tizimida muhim o'rin tutadi.



15-rasm. Sarmishsoy – ibtidoiy san'at yodgorligi.

¹⁰ Тошкент: тамаддун тарихи ва тараққиёт истиқболлари. – Тошкент: Маънавият, 2014. – Б. 47.

IV. TURIZM – BARQAROR IQTISODIY TARAQQIYOT OMILI

Turizm XXI asrda jahon iqtisodiyotiga juda katta ijobiy ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy soha sifatida kirib keldi. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha, dunyoda ishlab chiqarish va servis aylanmasining 10 foizi turizm hissasiga to'g'ri kelmoqda. Keyingi 20 yil ichida xalqaro turizmning rivojlanishi dunyo bozorida tovar va xizmatlarning kuchli eksport qilinayotganligidan dalolat bermoqda. Ya'ni, turistik xizmatlarning eksporti 8 foiziga o'sib, jahon bo'yicha umumiy xizmatlar savdosining 30–35 foizini tashkil qilmoqda.

O'zbekistonda ham bu borada mustaqillik yillarida soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keldi va hukumat tomonidan tegishli me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu yo'nalishdagi ishlar bugun ham davom etmoqda. Shu tufayli Jahon sayohat va turizm Kengashi (World Travel and Tourism Council-WTTC)ning ma'lumotlari bo'yicha, O'zbekiston Respublikasi turizm sohasi tezkorlik bilan rivojlanayotgan davlatlar 10taligi ro'yxatiga kiritilgan.



16-rasm. O'zbekistonning turistik salohiyati.

Hozirgi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – milliy turizmdir. Albatta, bu bejiz emas. O‘zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega davlatdir. Zero, mamlakatimizda 7300dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning o‘ziga xos tabiati va go‘zal dam olish zonalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyohlik yo‘nalishlarini ochish mumkin.

Jahon brendlarining faol ishtiroki bilan ushbu sektorda turizmning ekologik ma’rifiy, etnografik va gastronomik kabi turlarini rivojlantirishga e’tibor qaratish kerak. Shu munosabat bilan yangi O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlat va xususiy sheriklik munosabatlarini qo‘llash sohani rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, mamlakatimizning Islom olamida tutgan mavqeidan foydalangan holda Samarqand, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo va Toshkentdagi muqaddas qadamjolarini va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “Kichik haj” dasturini amalga tadbiiq etish bugungi kunda sohani rivojlantirishdagi dolzarb vazifalardan biridir.

Shu bilan birga, ichki turizm sohasida keng ko‘lamli imkoniyatlarni to‘liq ishga tushirish zarur. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida turizmning milliy modelini shakllantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Ushbu modelda ta’kidlanishicha, mamlakatda rivojlantirilayotgan turistik bozor boshqa har qanday bozorlar kabi mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatiga ta’sir ko‘rsatadi. U mamlakatlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish hamda investitsiya va kapital oqimini ta’minlash darajalarini aniqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda asosan, xususiy va tijorat kompaniyalari turistlarga xizmat ko‘rsatadi. Biroq, har qanday sharoitda ham davlat optimal iqtisodiy va huquqiy zaminni yaratgan taqdirdagina turizm sohasi rivojlanishi mumkin. Agarda, davlat kasbiy tayyogarlik masalalari, tabiiy va madaniy muhitni muhofaza etish, axborot-reklama ishlari hamda rasmiyatchilikni


soddalashtirish kabilar bilan shug‘ullanmasa, u holda turizm kutilganidek rivojlanish darajasiga erisha olmaydi. Bunda davlat tomonidan turizmni rivojlantirish, turistik xizmatlar bozorini shakllantirish, iqtisodiy tartibga solish usullari va richaglarini qayta isloh etish, turizmni tashkiliy boshqaruv strukturalarini takomillashtirish, uning eksport salohiyatini oshirish va eng asosiysi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabilarga tegishli uslubiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohani yanada rivojlantirish maqsadida 2019–2025- yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, unga ko‘ra, 2025- yilga kelib, xorijlik sayyohlar sonini 9–10 million nafarga oshirish, turli ko‘rgazmalar, tanlovlar o‘tkazish, O‘zbekistonni festivallar mamlakatiga aylantirish, shu tariqa, ivent-turizmni rivojlantirish rejalashtirilgan¹¹.

Toshkent viloyati mamlakatning sanoati yuqori darajada rivojlangan viloyatlardan biri bo‘lib, uning geografik o‘rni iqtisodiyotining ravnaq topishiga imkon beradi. Viloyat xo‘jalik kompleksi, asosan, poytaxt xo‘jalik kompleksini to‘ldiradi. Ayni paytda viloyat respublika sanoat mahsulotining 20 %, elektr energiyasining 45 %, ko‘mirning 98 %, sementning 43 %, po‘lat va metall prokatining 100 %, rangli metallarning asosiy qismini ishlab chiqaradi. Viloyatda 190 ta sanoat, 160 dan ortiq qo‘shma, 20 mingdan ortiq kichik va o‘rta biznes sub’yektlari faoliyat ko‘rsatadi. Eng muhimlari: “G‘ishtchi (Angren)”, “Agat va Farhod (Bo‘stonliq tumani)”, “Metallurfemont (Bekobod)”, “Orion (Qibray tumani)”.

Sanoatining yetakchi tarmoqlari – energetika, mashinasozlik, metallurgiya, ko‘mir, kon metallurgiyasi, kimyo, poyabzal, paxta tozalash, oziq-ovqat sanoati, to‘qimachilik hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash. Viloyatda sanoat korxonalaridan Bekobodagi O‘zbekiston metallurgiya, Olmaliqdagi kon-

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni. www.lex.uz.


metallurgiya, Yangi Angren hamda Toshkent issiqlik elektr stansiyalari hamda Chirchiqdagi o'tga chidamli va qiyin eriydigan metallar kombinati ishlab turibdi.



17-rasm. Toshkent viloyatida metallurgiya sanoati taraqqiyoti.

Chirchiqdagi “Elektrkimyosanoat”, Olmaliqdagi “Ammofos” va Angrendagi “O‘zbekrezinatexnika” ishlab chiqarish birlashmalari Respublika kimyo sanoatidagi yirik korxonalaridan hisoblanadi. Ushbu korxonalarda qishloq xo‘jaligi va boshqa tarmoqlar uchun azotli hamda fosforli o‘g‘itlar, ammiakli selitra, kaprolaktam ishlab chiqariladi. “O‘zbekkimyomash”, “Chirchiq qishloq xo‘jaligi mashinasozligi”, “Transformator” korxonalarida qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan paxta seyalkalari, kultivatorlar, podborshchiklar, ehtiyot qismlar va boshqa turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Viloyatdagi “Toshkenttibtexnika (Qibray tumani)”, “O‘zBMZ (Toshkent tumani)”, “Gidravlika”, “Uskuna quruvchi (Zangiota tumani)”, Dalvarzin ta‘mirlash zavodi (Bekobod tumani), Tog‘ transporti uskunalari ta‘mirlash zavodi, “Angrengazmash (Angren sh.)”

korxonalari yirik korxonalardan hisoblanadi¹². Viloyatda shuningdek, “Ohangaronsement”, “Santexquyma”, “Ohangaronshifer”, “Ohangaronlinplast”, “Bekobodsemta’mir”,



18-rasm. Toshkent viloyatida faoliyat olib borayotgani sanoat korxonalari.

“G‘azalkent oyna” kabi qurilish materiallari ishlab chiqaradigan va qayta ishlaydigan korxonalar ham mavjud bo‘lib, ularda sement, shifer, keramika, oyna, g‘isht, linoleum, temirbeton konstruksiyalari kabi mahsulotlar tayyorlanadi.


Viloyatda oziq-ovqat sanoati ham rivojlangan bo‘lib, bunda asosan, mahalliy xom ashyodan mahsulotlar tayyorlanadi. Ushbu sanoat korxonalari go‘sht, sut, yog‘-moy, un, qandolat, vino-arq, tamaki va boshqa tarmoqlarni o‘z ichiga oladi.

Oziq-ovqat sanoati paxtachilik mahsulotlari, bog‘dorchilik, tokchilik, sabzavotchilik, chorvachilik va boshqalarga asoslanadi. Viloyatda 4 ta un zavodi, konserva, pivo, arq, non va non mahsulotlari zavodlari, sholi tozalash korxonalari mavjud. Yangiyo‘l shahri viloyat oziq-ovqat sanoatining markazlaridan biri bo‘lib, bu yerda yog‘, konserva, vino va spirt zdlari, qandolat fabrikalari mavjud. Shuningdek, Chirchiq, Olmaliq va Angren shaharlari, Bekobod, Qibray, Zangiota,

¹² https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_viloyati.

Toshkent hamda Bo‘stonliq tumanlarida ham oziq-ovqat korxonalari ko‘pchilikni tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari: paxtachilik, bog‘dorchilik, tokchilik, pillachilik; tog‘ etaklarida lalmikor dehqonchilik (asosan, bug‘doy va arpa yetishtiriladi). Ayniqsa, mustaqillik yillarida sohada iqtisodiyotning ko‘p tarmoqli turlari shakllanib



19-rasm. Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi sohalari.

bormoqda. Toshkent viloyatida 50 mingdan ortiq dehqon xo‘jaligi va 7,5 mingdan ortiq fermer xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatadi. Bugungi kunda dehqon va fermer xo‘jaliklarining yalpi mahsulotdagi salmog‘i 72 % ni tashkil etadi. So‘nggi 10 yilda paxta urug‘chiligini rivojlantirishga e‘tibor ortib bormoqda. Viloyat paxta seleksiyasi va urug‘chilik sohasida ilmiy izlanishlar natijasida jahon talablarini qondiruvchi tola, yuqori hosilli hamda tezpishar navlar yaratilmoqda.



20-rasm. Toshkent viloyati qishloq mahsulotlari.

Toshkent viloyatida sanoat va dehqonchilik bilan bir qatorda turizm tarmog‘i ham serdaromad sohalardan biri hisoblanadi. Viloyatning o‘ziga xos xushmanzara tabiati, ulug‘vor tog‘lari, soy, daryo hamda zilol biloq suvlari, dam olish

maskanlari, tarixiy obyektlari, ziyoratgohlari muntazam sayyohlarni o'ziga jalb etib kelmoqda.

Viloyatda so'nggi yillarda nafaqat ichki, balki tashqi turizm sohasini ham rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Toshkent viloyatining turizm salohiyatini yanada rivojlantirish, turizm salohiyati yuqori hududlarning o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali turistlar sayyohati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, viloyatning o'ziga xos tabiiy hududlarida yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, turistlar oqimini yanada ko'paytirish, zamonaviy turizm infratuzilmasining jadal rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, turizm yo'nalishlaridagi tadbirkorlik sohasiga ushbu hududlar aholisini keng jalb qilish maqsadida "2019–2021- yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorda viloyatning turistik salohiyati yuqori tumanlarida amalga oshiilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar belgilangan. Jumladan, Parkent tumanida Masjid Ali ziyoratgohi joylashgan Kumushkon qishlog'ida "Kumushkon turizm qishlog'i"ni tashkil etildi. Qarorga ko'ra, Parkent tumani miqyosida quyidagi vazifalar ijrosi ta'minlandi:

- Parkent tumani So'qoq qishlog'ida har yili may oyida "So'qoq taomlari gastronomik turizm festivali"ni o'tkazish;
- tumanning Zarkent hududida har yili avgust oyida "Vino festivali"ni o'tkazish;
- Kumushkon mahallasidagi "Turizm qishlog'i"da 50 ta oilaviy mehmon uylarini tashkil etish;
- Parkent-Kumushkon-Parkent yo'nalishida turistik avtobus va taksi xizmatlarini yo'lga qo'yish;
- "Kumushkon turistik qishlog'i" hududida mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun sanitariya-gigiyena shoxobchalarini tashkil etish;
- A-373 hamda 4R-12 avtomobil yo'llarining Angren shahridan Parkent tumanigacha bo'lgan qismida turistik yo'l ko'rsatgichlarni o'rnatish;

– Parkent tumanidagi 28 gektar uzumzorda vinochilik turizmiga bag‘ishlangan “Vinochilar maskani” loyihasini amalga oshirish kabi vazifalar belgilab, ijrosi ta’minlanmoqda.

Toshkent viloyatidagi har bir tuman o‘ziga xos bo‘lgan turistik mahsulotlarni ishlab chiqarib, turizmning alohida yo‘nalishlarini rivojlantirib borilmoqda. Masalan, Bo‘stonliq tumani “Chorvoq” erkin turistik zonasi, Ugam Chotqol milliy bog‘i, “Chorvoq” suv omboriga ega, hududda turizmning barcha yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyati mavjud;

Parkent tumani – tog‘ oldi hududi hisoblanib, tabiati go‘zal, hududning ziyoratgohlari, agroturizm maskanlari, mazali ovqatlanish shoxobchalari mavjud;

Zangiota tumani – tarixiy hudud hisoblanib, u ziyorat turizmi ob‘yekti bo‘lgan “Zangiota” majmuasi, hunarmadchilik markazlari, savdo majmualariga ega;

Ohangaron tumani tarixiy manzilgohlar va madaniy meros ob‘yektlariga boy, sanoat turizmi yo‘nalishi bo‘yicha turizm namoyishi ob‘yektlariga ega;

Bo‘ka tumanining gastronomik turizm yo‘nalishida o‘ziga xos turistik ob‘yektlari mavjud;

Chinoz tumani Toshkent va vohani bog‘lovchi asosiy magistral yo‘l bo‘yida joylashgan bo‘lib, agroturizm, gastronomik turizm va turizmning boshqa turlarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega;

Angren sanoat shahri ekanligi bilan mashhur, Yangiobod va Lashkarak hududlarining tabiati go‘zal, sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi yo‘lbo‘yi ovqatlanish shoxobchalari mavjud¹³.

Tizimli ishlar turistlar oqimini oshirish, infratuzilmani modernizatsiyalash, viza rejimini erkinlashtirish borasida sezilarli natijalarga erishishga muvaffaq bo‘lindi. Masalan, eng liberal viza rejimlari reytingida 2019- yilda O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida ikkinchi o‘rinni egalladi. Mamlakatimiz turistik salohiyatini oshirishga befarq bo‘lmagan aholining oilaviy mehmon uylarini, turistlar uchun kamida besh xil xizmat ko‘rsatish turlarini tashkil etganda “Turizm

¹³ Tashmurotov T., Saidov A., Umarqulov E. Turizm iqtisodi. – Toshkent: TMI, 2000.– B. 76.

mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomini berishga oid yangiliklar kiritilmoqda. Bularni Toshkent viloyati Parkent tumani “Kumushkon turistik qishlog‘i”, Samarqand shahridagi Bog‘ibaland mahallasi “turistik mahalla”ni aylantirilganligida ko‘rish mumkin.

Mamlakatda turizm sohasini rivojlantirish va ommalashtirishga munosib hissa qo‘shgan jamoat tuzilmalari vakillariga va xorijdagi vatandoshlarga “Turizm sohasini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun” ko‘krak nishonini ta‘sis etish taklifining qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat yurtdoshlarimiz, balki xorijda yashayotgan vatandoshlarimizning ham O‘zbekistonning ulkan turistik imkoniyatlarini ochib berishda muhim omil bo‘lishi shubhasiz.



21-rasm. Toshkent viloyati dam olish maskanlari.

ZIYORAT TURIZMI

Yaratganning mehri, nazari tushgan bu zaminda Shayx Umar Bog‘istoniy, Xoja Ahror Valiy, Abu Bakr Shoshiy, Abu Sulaymon Banokantiy kabi aziz avliyo va allomalar yetishib chiqqanini tarixdan yaxshi bilamiz. Buyuk alloma Oyxo‘ja ibn Toshxo‘ja-Zangi otaning nomi, bu muborak zotning Toshkent viloyatidagi ziyoratgohi butun musulmon olamida ma’lumu mashhurdir.

*Shavkat Mirziyoyev,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti*

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida turizm sohasi tez sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan va eng daromadli biznes turi bo‘lib, uning yalpi milliy daromaddagi ulushi 10 foizni tashkil etadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, yaratilayotgan ish o‘rinlarining har yettinchisi, “Uchinchi dunyo” mamlakatlari bo‘yicha pul mablag‘lari tushumining 50 foizi va ish bilan bandlik darajasining 80–90 foizi turizm sohasiga tegishli¹⁴.

Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) davlatlarga turizm salohiyatini oshirish, yangi xizmatlar taklif etish, zamonaviy turizm brendlarini yaratish, turizm sohasi raqobatbardoshligini tubdan oshirish bo‘yicha takliflar kiritish zarurligini ilgari surmoqda. Bu esa turizm geografiyasini yanada kengaytirish, mamlakatlar ichki mahsuloti (YAIM)dagi ulushini oshirish hamda turizmning rentabellik sohalardan biri ekanligini ko‘rsatib turibdi.

Mamlakatimizda turizm biznesining rivojlanishi, xorijiy turistlar oqimi va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish tarmoqda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi bandlik darajasining o‘sishi, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati bilan shug‘ullanuvchi boshqa sub‘yektlarning soni ko‘payishiga olib keladi. Jumladan, “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar

¹⁴ <http://vavilon.ru/statistika-v-turizme>.

strategiyasi”da ham turizm industriyasini jadal rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzulmasini kengaytirish muhim yo‘nalishlarda biri sifatida belgilab berildi¹⁵.

O‘zbekiston Respublikasining geografik joylashuvi, tarixi va iqlim sharoitiga ko‘ra, turizmning ekoturizm, ziyorat turizmi, sayohat turizmi kabi turlari mavjud bo‘lib, bugungi kunda turizmning yangi yo‘nalishlari – tibbiyot turizmi, ta’lim turizmi, agroturizm, kinoturizmi va ov turizmi kabilar yo‘lga qo‘yilmoqda.

So‘nggi yillarda xalqaro va ichki turizm yo‘nalishlari ichida ziyorat turizmi jadal sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda hamda jahon turizm bozorining eng tez rivojlanayotgan segmentlaridan biriga aylandi. Xalqaro tadqiqodlarga ko‘ra, ziyorat turizmi yo‘nalishida sayohat qilayotganlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.



22- rasm. Afsonaviy va tarixiy shahar – Xiva.

2017- yilda ziyorat turizmi yo‘nalishi bo‘yicha 131 mln. kishi sayohat qilgan va bundan tushgan daromad 177 mlrd. dollarni tashkil etgan. 2020- yilda mazkur

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – №6. – 70-modda.

turizm yo‘nalishida sayyohlar soni 160 mln. kishiga yetishi hamda 2026- yilda esa 300 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad ko‘rishi kutilmoqda¹⁶.

Yuqoridagi raqamlardan kelib chiqib, dunyoning aksariyat davlatlari ziyorat turizmining istiqbolini inobatga olgan holda ushbu sohaga sarmoyalarni faol jalb etmoqda. Jumladan, jahon sivilizatsiyasi o‘choqlari bo‘lmish Misr, Yunoniston, Italiya, Xitoy va Saudiya Arabistoni kabi davlatlar ziyorat turizmi bo‘yicha dunyo mamlakatlari orasida yetakchilik qilib kelmoqda.

O‘z o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, O‘zbekiston ham o‘zining Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Qo‘qon va Marg‘ilon kabi shaharlari bilan ziyorat turizmi bo‘yicha dunyoning har qanday mamlakatlari bilan tenglasha oladi. Shu sababli, so‘nggi yillarda mamlakatimizda turizm industriyasini rivojlantirish, sohada investitsiya muhitini kuchaytirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Investitsiyani jalb qilish orqali yangi turistik ob‘yektlarni bunyod etish, mavjudlarini qayta ta’mirlesh va rekonstruksiya qilish, yangi turistik xizmatlarni yo‘lga qo‘yish hamda sohaga innovatsion g‘oyalarni tatbiq etish mumkin¹⁷. Bu esa o‘z navbatida turistik xizmatlar sifatini oshirish hamda raqobatbardosh milliy turistik xizmatlarni jahon bozorida taklif qilish orqali yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar sonini ko‘paytirish imkoniyatini beradi.



23- rasm. Buxoro – Qubbat-ul islom.

O‘zbekiston turizmni rivojlantirish bo‘yicha juda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, respublikada 7,3 mingdan ziyod madaniy meros ob‘ektlari mavjud. Ushbu

¹⁶ Thomson Reuters, 2018, Crescent Rating, 2018.

¹⁷ Боголюбов В. С. Туристско-рекреационное проектирование. Оценка инвестиций: учебник и практикум для академического бакалавриата / В. С. Боголюбов, С. А. Быстров, С. А. Боголюбова. – Москва: Издательство Юрайт, 2017. – С. 9–10.

madaniy meros inshootlaridan 209 tasi YuNESKOning Butunjahon merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda 11 ta milliy bog', 12 ta qo'riqxon, 106 ta muzey va sayyohlarni o'ziga jalb qilishi mumkin boshqa ko'plab obyektlar faoliyat olib bormoqda.



24- rasm. Hazrati Imom majmuasi (Toshkent shahri).

Ammo, shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimizning sayyohlik salohiyati haligacha to'liq ochib berilmagan. Bunga asosiy sabablaridan biri turizm infratuzilmalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ularni rivojlantirish uchun investitsiyalarning yetarli emasligidir. Mana shunday muammolarga yechim topish maqsadida hukumatimiz tomonidan mamlakatda turizmni rivojlantirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda.

Jumladan, 2019-yil 13-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi¹⁸. Mazkur Farmonga asosan, turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish va infratuzilmalaridagi muammolarni bartaraf etish, xizmat ko'rsatish sifatini

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 13- avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5781-sonli Farmoni // www.lex.uz

yaxshilash hamda milliy turistik xizmatlarni taklif etish orqali mamlakatimizga keluvchi sayyohlar sonini oshirishga qaratilgan.

O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini targ‘ib etish va ziyorat turizmini yanada rivojlantirishda 2019- yil 21–23- fevral kunlari Buxoro shahrida o‘tkazilgan I Xalqaro Ziyorat turizmi forumi (The First International Forum on Ziyarah tourism) muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mazkur xalqaro forum O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatning xalqaro maydondagi ziyorat turizmi bo‘yicha mavqeini oshirish maqsadida o‘tkazildi. Ushbu tantanali tadbir Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari qo‘mitasi, O‘zbekiston musulmonlar idorasi, “Vaqf” xayriya jamg‘armasi, Tashqi ishlar vazirligi, Buxoro viloyati hokimligi, ISESCO (Ta‘lim, ilm-fan va madaniyat bo‘yicha islom tashkiloti) va UNWTO (Butunjahon turistik tashkiloti) hamkorligida tashkil etildi. Xalqaro forum doirasida O‘zbekistonning ziyorat turizm markazlaridan biri sifatida tan olinishiga doir “Buxoro deklaratsiyasi” imzolandi.

Ta‘kidlash joizki, “Buxoro deklaratsiyasi”ning imzolanishi O‘zbekiston tarixidagi muhim hodisadir. Ekspertlarning fikricha, ushbu tarixiy va huquqiy hujjatning imzolanishi Respublikada sayyohlik infratuzilmasining rivojlanishi va turistik oqimning yanada ko‘payishiga kuchli turtki beradi.



Kokand



25- rasm. Qo‘qon shahri – Turkiy kengashning ilk turizm poytaxti.

Mamlakatda ichki va xalqaro turizmni barqaror rivojlantirish, sohada investitsion muhitni kuchaytirish maqsadida Fransiya, Hindiston, Misr,

Belorussiya, Ispaniya, Qirg‘iziston, Tojikiston kabi davlatlar bilan shartnomalar imzolaniib, xorijiy sarmoyalar jalb etilmoqda. Jumladan, Fransiyaning Konsorsium kompaniyasi bilan tuzilgan investitsion shartnomaga ko‘ra, 750 ming AQSh dollari Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi turistik hududni rivojlantirishga yo‘naltirildi¹⁹.

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi nufuzli – “Ze Haffington post” nashri tomonidan Samarqand jahondagi inson o‘z umri davomida albatta borib ko‘rishi shart bo‘lgan 50 ta shaharlardan biri deb e‘lon qilinishi, dunyoning 92 mamlakatida tibbiy va turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi International SOS hamda Control Risks kompaniyasi ekspertlari tomonidan 2019- yil sayyohlari uchun tuzilgan xaritaga ko‘ra, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng xavfsiz mamlakat deb tan olinishi hamda Malayziyaning Research House of Asia Media kompaniyasi tomonidan Osiyo mintaqasida o‘tkazilgan ijtimoiy va marketing tadqiqodlari natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston Osiyodagi eng boy tarixiy mamlakat deb e‘tirof etilishi mamlakatimiz turizm salohiyatining jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanayotganligidan darak beradi²⁰.



26- rasm. Sharq mash'ali – Samarqand.

¹⁹ <https://invest.gov.uz/ru/news/konsortsiy-frantsuzskih-kompanij-zajmetsya-blagoustrojstvom-bostanlykskogo-rajona>.

²⁰ www.kun.uz.

Toshkent viloyati nafaqat qulay geografik joylashuvi, so‘lim tabiati, purviqor tog‘lari, shuningdek, madaniy yodgorliklari, muqaddas qadamjolari bilan ham alohida ajralib turadi. Bu yerda “Shoabdumalik ota”, “Shayx Umar Vali Bog‘istoni”, “Zangi ota”, “Iyk ota” ziyoratgohlari, “Gumbaz bobo” maqbarasi, “Qaynargumbaz” sardobasi, “Shohruxiya” shahristoni kabi tarixiy qadamjolar borki, ular viloyatning buyuk o‘tmishi, ko‘hna va boy madaniyatidan so‘zlaydi. Bu esa hududda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Poytaxt viloyati insoniyat ilmiy-madaniy tamadduniga hissa qo‘shgan O‘zbekistonning yirik madaniy mintaqalaridan biri. Qadimdan u Choch davlati sifatida dunyoga ma‘lumu mashhur bo‘lgan, ilm-fan va madaniyat, davlatchilik rivojlangan.



27-rasm. Iyk ota ziyoratgohi.

Viloyatdagi ayrim qoyatosh suratlar Markaziy Osiyodagi petrogliflar orasida syujeti va kompozitsiyasi jihatidan betakror hisoblanadi. Xo‘jakent, Qoraqiyasoy,



28-rasm. Iyk ota ziyoratgohi.

Ohangaron va boshqa joylardan topilgan petrogoliflar o‘ziga xosligi bilan tadqiqotchilardan tashqari tashrif buyuruvchilarda ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Toshkent viloyati hududida 828 ta moddiy madaniy meros ob‘yeki mavjud bo‘lib, shundan 588 tasi arxeologiya, 7 tasi arxitektura, 74 tasi monumental yodgorlik, 159 tasi diqqatga sazovor joylardir. Shuningdek, viloyat hududida 223 tasi mahalliy va 605 tasi respublika ahamiyatidagi ob‘yektlar mavjud²¹.

Aytish joizki, 2016– 2021-yillar davomida 18 ta madaniy meros ob‘yektida ta‘mirlash tiklash ishlari olib borildi. Ushbu maqsadlar uchun jami 18 milliard 582 million so‘m mablag‘ ajratildi.

²¹ <https://legacy.uz/uz/toshkent-viloyatida-nechta-madaniy-meros-obyektlari-bor/>



Yuqori Chirchiq tumanidagi “Iyk ota” ziyoratgohi yaqin vaqtlargacha juda xarob holatda edi. Ziyoratgoh 2020-yilda tuman hokimligi tashabbusi bilan to‘liq ta’mir lanib, obod maskanga aylantirildi.

29-rasm. Temratki ota ziyoratgohi.

Jumladan, majmuada namozxona, kutubxona qurildi, ziyoratchilar uchun barcha sharoitlar yaratildi. Maqbara o‘tmish va bugungi kun bunyodkorligini o‘zida uyg‘unlashtirgani bilan e’tiborni tortadi. Hovlilar keng va shinam. Namozxonasi esa yorug‘ va charog‘on. Bir so‘z bilan aytganda, ushbu maskan



30-rasm. Payg‘ambar ota ziyoratgohi.

ziyosatga keluvchilar va xorijiy mehmonlar uchun zamonaviy sayyohlik maskaniga aylangan.



31-rasm. Zangiota ziyoratgohi.

Prezidentimizning 2021-yil 2-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizning barcha hududida bo‘lgani kabi Toshkent viloyatidagi tarixiy obidalarning yanada obod bo‘lishi hamda mahalliy va xorijiy sayyohlarga qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorda Toshkent viloyatida “Zangi ota ziyoratgohi va “Shayx Umar Valiy” ziyoratgohlari jami bo‘lib esa 22 ta obyekt kiritilgan bo‘lib ularni rekansturksiya qilish va rivojlantirish uchun 1 mlrd 180 mln so‘m mablag‘ ajratildi.

Ta’kidlash joizki, 2021-yilda Oqqo‘rg‘on tumanida joylashgan “Shomirqori avliyo” ziyoratgohi, Bekobod tumanidagi “Buzruk buva” maqbarasi va “Temirtaki ota” majmuasida keng ko‘lamli qurilish ishlari olib borildi. Maqbaralar va ayvonlar barpo etildi. Ziyoratgohlar hududi obodonlashtirildi. Bo‘stonliq tumanidagi “Shayx Umar Vali Bog‘istoni” va Parkent tumanidagi “Zarkent ota” ziyoratgohlarida ayni paytda ta’mir va tiklash ishlari, maqbaralar qurilishi davom etmoqda. Shu bilan birga, 20 ta moddiy-madaniy meros obyektiga olib boruvchi yo‘l ko‘rsatkich belgilari va 1 ta elektron hisobga oladigan turniket, “Shoabdumalik ota”,

“Zangiota” ziyoratgohlarida WI-FI nuqtalari hamda 20 dan ortiq obyektida muhofaza belgilari o‘rnatildi. Shuningdek, 200 ta moddiy madaniy meros ob‘yektini qayta tarixiy madaniy ekspertizadan o‘tkazish, raqamlashtirilgan pasporti va katalogini ishlab chiqish, ulardan 200 tasining qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash va raqamlashtirish ishlari bajarildi.

Viloyatda nafaqat mavjud tarixiy obidalarni tiklash va ta‘mirlash ishlariga, balki yangi arxeologik yodgorliklarni izlab topishga ham alohida e‘tibor



qaratilmoqda. O‘tgan yili olib borilgan tadqiqotlar, izlanishlar natijasida Parkent tumanida “Patir tepa” hamda Ohangaron tumanida “Marjontepa” madaniy meros obyektlari aniqlandi.

32-rasm. Payg‘ambar ota ziyoratgohi.

Toshkent vohasida joylashgan Zangiota, Hazrati Ali, Shoabdumalik ota, Buzruk ota, Zarkent ota, Payg‘ambar ota, Shomirqori avliyo, Parpi ota, Shayx Umar Vali, Buzruk ota, Qirq qiz kabi ziyoratgohlari mashhur bo‘lib, bu yerga nafaqat respublikamizdan, balki qo‘shni respublikalar hamda Rossiya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Eron, Pokiston kabi davlatlardan ziyoratchilar tashrif buyurmoqda.

Amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda viloyatda ziyorat turizmini rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiluvchi obyektiv va subyektiv muammolar ham mavjud. Jumladan:

– hududning turistik resurslarini reklama, targ‘ibot va tashviqot ishlarining pastligi;

– internet tezligining pastligi. Bu holat turistlar uchun o‘z video va rasmlarini qarindosh hamda yaqinlari bilan onlayn yuborish imkoniyatini cheklab qo‘ymoqda;

– ziyoratgohlar joylashgan hudud infrastrukturasidagi muammolar: ziyoratgohlarga olib boruvchi yo‘llarning asosiy qismi ta‘mirlashga muhtoj, ichimlik suvi va tabiiy gaz muammolari;

– ziyoratchilar va sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar soni va xizmatlar sifati, narxini qayta ko‘rib chiqish kerak;

– muqaddas qadamjo va ziyoratgohlarning tarixiy-me‘moriy qiyofasi hamda tabiat bilan uyg‘unligini yo‘qotmasligi uchun rekonstruksiya, obodonlashtirish ishlarini mutaxassis olimlar bilan hamkorlikda amalga oshirishni yo‘lga qo‘yish kerak.

Toshkent viloyati ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbolli rejasida quyidagilar amaliyotga tatbiq etilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

– Turistik resurslar to‘g‘risida saytlar va mobil dasturlarni ishlab chiqish orqali targ‘ibot ishlarini kuchaytirish kerak;



33-rasm. Shobdumalik ota ziyoratgohi.

– turistik salohiyatni yanada oshirish uchun respublikadagi barcha turistik ob'ektlarning 3D formatdagi virtual turizm dasturlarini ishlab chiqish kerak.



Dastur orqali sayyohlar tarixiy obidalar bilan virtual tanishish hamda sayohat qilmoqchi bo'lgan ob'yekti to'g'risida ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

34-rasm. Gumbaz bobo ziyoratgohi.


– Toshkent viloyatida turizm industriyasi bo'yicha investitsion loyihalar sonini oshirish;

– mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali turistlar oqimini ko'paytirish. Masalan, Buyuk Ipak yo'li loyihasi kesimida: Qozog'iston-O'zbekiston qo'shma turlari kabi.

– turizm sohasi bilan bog'liq kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash buyicha dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish kerak. Samarali tashkil etish uchun byurokratik to'siqlarga barham berish kerak;

– ziyorat turizmi yo'nalishini qo'shimcha yo'nalishlar bilan boyitish ya'ni ekoturizm, gastronomik turizm, agroturizm, shopping va boshqalar bilan uyg'unlashtirish. Masalan, Toshkent viloyatidagi sog'lomlashtirish maskaniga dam olish uchun kelgan sayyoh bevosita hududda joylashgan ziyoratgohlarga ham tashrif buyuradi. Ziyoratgoh hududida milliy hunarmandchilik va esdalik sovg'alari savdosini rivojlantirish orqali sayyohlarga milliy mahsulotlarimizni taklif etishimiz mumkin. Betakror milliy taomlarimiz hamda shirindan-shirin meva-savzovotlarimizning o'ziga xosligi gastronomik turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jumladan, rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, gastronomiya va

turizm o'rtasidagi aloqalar sayyohlar oqimini ko'paytirishga yordam berishi kuzatilmoqda. Vaholanki, sayyohlikning bu turi kelayotgan mehmonlarning safarini uzaytirishga sabab bo'ladi. Bugungi kunda sayyohlik sanoati daromadlarida gastronomik turizmning ulushi 30 foizdan oshib bormoqda. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, Toshkent viloyati nafaqat ziyorat turizmi, balki ekoturizm, sayohat turizmi, sport turizmi, tibbiyot turizmini rivojlantirish bo'yicha ulkan salohiyatga ega hudud hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'li loyihasi doirasida turizm sohasini targ'ib etish viloyatdagi aholini ish bilan ta'minlashga, valyuta tushumining ko'payishi, YAIMning o'sishi hamda mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilib, valyuta tushumlari hamda tashqi savdo balansi barqarorligi ta'minlanadi. Zero, Xalqaro TripAdvisor



tashkilotining kuzatuviga ko'ra, 80 foizdan ziyod sayyohlar Buyuk Ipak yo'li haqida ma'lumotga ega. Forbes jurnali esa uni eng taniqli brend sifatida tan olgan. O'zbekiston BMT, YuNESKO va Butunjahon turizmni rivojlantirish tashkilotining qadimiy Buyuk Ipak yo'li turizmini qayta tiklash bo'yicha millatlararo loyihasining faol qatnashchisi hisoblanadi. Shu sababli, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, O'zbekistonning turizm xabini yaratish sari barcha kuchlarni safarbar etish kerak.

35-rasm. Toshkent viloyati gastronomik xaritasi.

PARKENT TUMANI ZIYORATGOHLARI

Tekislik, tog' oldi va tog' singari uchta landshaft zonalarining uyg'unligi Parkent tumanida o'ziga xos tabiiy sharoit kasb etib, ushbu hududda o'ziga xos xo'jalik hamda ishlab chiqirish tizimining shakllanishiga zamin yaratgan. Suv manbalarining seroblighi, unumdor tuproq, boy o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari sababli mazkur hudud insonlar tomonidan tosh asridayoq o'zlashtirilgan. Qoyatosh sur'atlari, arxeologik yodgorliklar mintaqaning qadimiy tarixidan dalolat beradi. G'or va ungurlardagi ibtidoiy odam manzilgohlari, ibtidoiy odamlar tomonidan bitilgan qoyatosh sur'atlari – petrogliflar, tosh qurollarga ishlov berilgan ibtidoiy ustaxonalar, qadimiy shahtalar, shaharlar, sug'orish inshootlari, qo'rg'onlar, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar shular jumlasidandir.

ZARKENT OTA ZIYORATGOHI

Chotqol tog' tizmasining g'arbiy yonboshida ko'hna Zarkent qishlog'ining yuqori qismida, muqaddas Makkayu-Madina shaharlari bilan fazoviy bir to'g'ri chiziqda joylashgan mazkur ziyoratgohda avliyo Zarkent ota qabri joylashgan bo'lib, ushbu avliyoning asl ismi Ja'far ibn Husayn Sayyid Battol G'oziydir. Zarkent ota VII–IX asrlarda yashab faoliyat ko'rsatgan, harbiy qo'mondon va qutb-ul-aqtoq darajasidagi tasavvuf namoyondasi. Suriyaning Molotiya shahrida tug'ilgan, arab millatiga mansub Sayyid Battol G'oziy bilimli, odamlarga yaxshilik qiluvchi, Islom madaniyati va dini targ'ibotchii sifatida e'tirof etiladi. Toshbasma uslubida 1324 yilda Toshkentda nashr etilgan "Sayid Ja'far G'oziy jangnomasi" nomli asarda ushbu zot haqida ma'lumotlar keltirilgan. Rivoyatga ko'ra, Zarkent qishlog'ida bo'lgan jangda Sayyid Ja'far G'oziy dushmanlarni yengib, g'oyib bo'lgan. Dunyoda Sayyid Ja'far G'oziyning yettita qadamjosi mavjud bo'lib, Zarkent qishlog'idagi muqaddas maskan eng ulug' ziyoratgohlardan biri hisoblanadi.

Zarkent ota ziyoratgohi o'ziga xos ikki xislati bilan mashhur:

-birinchisi, “Qushqo‘nmas avliyo joy” deb nomlanishi – ziyoratgoh hududidagi daraxt va butalarga bulbuldan boshqa parrandalar qo‘nmaydi;

-ikkinchisi, ziyoratgoh buloq suvining shifobaxshligi, sofligi va qadamjoning murodbaxshligidir. Shu sababli bir necha asrlar mobaynida bu yer muqaddas ziyoratgoh sifatida ulug‘lanib kelmoqda. Ziyoratchilar “Avliyo Zarkent ota” ruhiga Qur‘on tilovot qilib, duolar qilishadi, o‘zlarining murod-istaklariga yetishishni Ollohdan surab, umid bilan kelishadi.

“Zarkent ota” ziyoratgohi 1963- yilda Chotqol-Qurama arxeologik otryadi tamonidan o‘rganilib, qadimgi shahriston hududi VII–XIII asrlarga oid ekanligi aniqlangan.

2022-yil Zarkent ota qabri ustuga sharqona uslubdagi maqbara bunyod etilgan. Ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yaratilib, ziyoratgoh atrofidagi daraxtzorda qadimiy archa, zarang, terak, yong‘oq kabi daraxtlar, turli butalar o‘sadi. Ziyoratchilar bu yerda ziyorat amallarini bajarish bilan birgalikda tog‘ havosidan nafas olib, tabiat qo‘ynida dam olishlari mumkin.




36-rasm. Zarkent ota ziyoratgohining umumiy ko‘rinishi.



37-rasm. Zarkent ota ziyoratgohidagi buloq.

Ziyoratgohning buloq suvi sof va shifobaxshligi bilan ajralib turadi, chunki uning tarkibida oltin hamda kumush unsurlari aniqlangan. Bu yerga kelgan ziyoratchilar avliyoning ruhiga tilovatlar qilib, tabiatning g'ayrioddiy sofligi va shifobaxsh suvlaridan bahramand bo'ladilar.




38-rasm. Zarkent ota ziyoratgohidagi daraxtzor.

BUYUK IPAK YO'LI CHORRAHASIDA ZIYORAT TURIZMINING QAYTA TIKLANISHI (PARKENT TUMANI MISOLIDA)

Tarixdan ma'lumki, xalqlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqot insoniyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ushbu vazifani qadimdan turli xalqlar va mamlakatlarni o'zaro birlashtirib turuvchi, ilm-fan hamda madaniyatlar almashinuvi uchun xizmat qilgan karvon yo'llari bajargan. Dastlabki savdo yo'llari neolit davrida vujudga kela boshlagan, bronza davriga kelib, keng miqyosda rivojlangan²².

Ana shunday qadimiy karvon yo'llaridan biri bo'lgan Buyuk Ipak yo'li bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Jumladan, Buyuk Ipak yo'li o'tgan hududlarni o'zaro bir-biri bilan iqtisodiy, transport-kommunikatsiya jihatidan bog'laydigan xalqaro hamkorlik dasturi TRASEKA doirasida “Yevropa-Kavkaz-Osiyo” transport yo'lagi



39-rasm. Buyuk Ipak yo'li xaritasi.

O'zbekistonda ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. TRASEKA dasturining amalga oshishi Xitoyning “Bir makon – bir yo'l”

²² Артановский С. Н. Историческое единство человечество и взаимное влияние культур. – Л.: Просвещение, 1967. – С. 101–103.

strategiyasini amalga oshirish rejalari bilan bog‘liq bo‘lib, Xitoydan Yevropaga yuklar va yo‘lovchilar harakat qiladigan transport marshruti – “Yangi Ipak yo‘li”ning ochilishi Sharq va G‘arb mamlakatlari o‘rtasidagi turizmning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda O‘zbekistonda mamlakatning turizm salohiyatini tubdan yangilash, turizm infrastrukturasi shakllantirishda yagona davlat siyosatini amalga oshirish, xalqimizning boy tarixiy-madaniy merosini keng targ‘ib qilish, mamlakatimizda xavfsiz turizmni ta‘minlash, milliy turizm mahsulotlarini xalqaro turizm bozoriga olib chiqish kabi masalalarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Respublikada 7,3 mingdan ziyod madaniy meros ob‘yektlari mavjud bo‘lib, ulardan 209 tasi YuNESKOning Butunjahon merosi obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda 11 ta milliy bog‘ va 12 ta qo‘riqxona, 106 ta muzey va sayyohlarni o‘ziga jalb qilishi mumkin boshqa ko‘plab ob‘yektlar faoliyat olib bormoqda. O‘zbek xalqining tarixiy moddiy va ma‘naviy merosi, urf-odat hamda an‘analari, marosim va bayramlari, tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, takomillashib, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, hozirgi davrga qadar yetib kelgan bo‘lib, ushbu jarayonga madaniyatlararo muloqotning muhim omili sifatida Buyuk Ipak yo‘li katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Buyuk Ipak yo‘li tarixida Toshkent vohasidan o‘tuvchi savdo tarmog‘i muhim ahamiyatga ega. Toshkent vohasi insonlar tomonidan paleolit davridayoq o‘zlashtira boshlangan. Ajdodlarimiz Chirchiq (Turk, Barak yoki Parak, Chir) daryosi havzasi vodiysida joylashgan, daryo irmoqlari va anhorlar orqali mo‘l-ko‘l sug‘oriladigan, chorvachilik yaylovlari, dehqonchilik hamda bog‘dorchilik uchun yaroqli serhosil tuprog‘i bo‘lgan vohada har tomonlama buyuk tamaddunga tamal toshini qo‘ydi. Qadim-qadim zamonlarda Toshkent (turkiyda-Choch; xitoychada-Yuyni, Chjeshi, Shi, Tashigan; arab tilida-Shosh, Shoshkand) Chirchiq va Ohangaron daryolari vodiylarini, ularga tutashib ketgan bepoyon Dashti Qipchoq kengliklari va Movarounnahr dehqonchilik vohasi o‘rtasida yastanib yotgan Sirdaryo chap qirg‘og‘i tog‘ va dasht tumanlarini egallagan edi. Qulay iqlim, boy

foydali qazilmalar (oltin, kumush, temir, qo‘rg‘oshin, feruza va boshqalar) va serunum tuproq vohaning iqtisodiy taraqqiy etishiga, ayni chog‘da ko‘chmanchi chorvadorlar va o‘troq dehqonlarning o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, savdo-sotiq va madaniy aloqlari markaziga aylantirdi.

I ming yillik boshidayoq Toshkent vohasi Buyuk Ipak yo‘lidagi eng muhim markazlardan biriga aylanib bo‘lgan edi. Toshkentning qadim va buyuk tarixi to‘g‘risida-qadimgi va o‘rta asrlarga oid yuzlab qo‘rg‘onlar, shaharchalar va me‘morchilik tarixiy obidalari ma‘lumot beradi. Musulmon malakatlarini kezib chiqqan arab, fors olim va geograflari Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy tomonidan Shosh tarixiy viloyati quyidagicha ta‘riflangan: “Xuroson va Movarounnahrda jome masjidlari, obod qishloqlari ko‘pligi, yu, zaminlari kengligi va imoratlari ko‘pligi-aholisining kuch-quvvati va jasurligi borasida bu kabi boshqa bir mamlakat uchramaydi...”²³.



40-rasm. Parkent tumani turistik obyektlari.

²³ Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Тошкент шаҳри. – Тошкент: Uzbekistan today, 2016. – Б. 9.

Toshkent vohasi nafaqat iqtisodiy va siyosiy mavqeining yuqoriligi, qolaversa, shu tuproqda tugʻilib oʻsgan buyuk allomalariyu avliyolari, ziyoratgohlari bilan ham dunyoga mashhurdir. Buyuk Ipak yoʻlida nafaqat savdo sotiq, madaniy-ilmiy muloqat almashinuvi bilan bir qatorda ziyorat marosimlari ham amalga oshirilgan.



41-rasm. Hazrat Ali ziyoratgohi zinapoyasi.

Jumladan, karvon bilan savdoga chiquvchilar uzoq safarga chiqishdan oldin hamda safardan qaytganlaridan soʻng ziyoratgohlarga tashrif buyurgan. Ana shunday savdo yoʻlida joylashgan ziyoratgohlardan biri Toshkent viloyati Parkent tumani Kumushkon qishlogʻi hududida joylashgan boʻlib, IX–XI asrlarda bu yerda kumush qazib olingan mashhur konlar boʻlgan.

Shu sababli, Parkent tumanidagi ushbu goʻsha Toshkent vohasining tarixiy va tabiiy zonalaridan biri hisoblanadi. “Masjid Ali” ziyoratgohi Hazrat Ali nomi bilan bogʻliq boʻlib, paygʻambar Muhammad (s.a.v.) kuyovi boʻlgan. Maʼlumki, Hazrat Ali musulmonlar qavmi uchun “Ahli bayt” deb, ulugʻlanib kelgan paygʻambar



42-rasm. Hazrat Ali ziyoratgohining kirish yo‘lagi.


(s.a.v.) avlodlari “Sayyidlar”ning Rasuli akramdan keyingi davomchisidir²⁴. Hazrat Ali va uning avlodlari bilan bog‘liq ziyoratgohlar musulmon o‘lkalarda ko‘plab uchraydi. Halifa Alining Najjaf (Iroq), Mozori Sharif (Afg‘oniston), Farg‘ona vodiysining Shohimardon ishloqlardagi ziyoratgohlari azaldan e‘zozlab kelingan.

Rivoyat qilishlaricha, Hazrat Ali bu yerga Duldul oti bilan kelgan. Chinor ostida dam olib, nomoz o‘qimoqchi bo‘libdi. Tahorat uchun suv topa olmagach, Ollohga iltijo qilibdi. Ollohning inoyati ila buloq paydo bo‘libdi. Shu sababli, buloqni mahalliy xalq Avliyo-buloq deb atashgan. Hazrat Ali buloq suvi bilan afsonaviy Duldul otini sug‘organ. Hozirgi kunda ziyoratgohda 750–800 yillik ulkan chinor daraxti va shifobaxsh bulog‘i bilan mashhur bo‘lib, bu yerga nafaqat O‘zbekiston, balki qo‘shni davlatlardan ham ziyoratchilar va sayyohlar tashrif buyuradi.

²⁴ Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Тошкент шаҳри..... – Б. 9.

2010- yilda ziyoratgoh sharq me'morchiligi asosida qayta bunyod etildi. Ko'k gumbazli masjid, maqbara, minora, ziyoratgohga olib boruvchi yo'lak, ziyoratchilar uchun oshxona, qurbonliq keltirish uchun qushxona va dam olish xonalari qurilib, o'ziga xos betakror ziyoratgohga aylantirildi. Hazrat Ali ziyoratgohida joylashgan masjid O'zbekistondagi eng yuqorida joylashganligi bilan ahamiyatlidir. Ziyoratgohdan "Kumushkon" qishlog'i yaqqol ko'rinib turadi. Ziyoratchilar bu yerda Hazrat Ali haqiga duo qilib, qurbonliklar bajo keltiradlar. Chinor daraxtiga niyat qilib, mato parchasini bog'laydilar (Hozirgi kunda bunga shirk amal sifatida ruxsat berilmaydi).

Mazkur ziyoratgohdagi "Muqaddas buloq" suvi tarkibidagi minerallari bilan turli xil yara kasalliklariga shifo hisoblanadi. Bu yerga ziyoratchilar asosan, bahor va kuz fasllarida ko'p tashrif buyuradi. Ziyoratgoh masjidida ayollar va erkaklar namoz o'qishi uchunbarcha sharoitlar yaratib berilgan. Masjidda bir nechta Qur'on kitoblari nusxalari qo'yilgan.





43-rasm. Hazrat Ali ziyoratgohi.

EKOTURIZM



44-rasm. So‘qoq tog‘laridagi ekosayyoh.

Tabiat qanchalik turli-tuman bo‘lsa, ekoturizm ham shunchalik turlichadir. Ularning farqi nafaqat iqtisodiy yoki tabiiy ko‘rsatkichlar, balki mahalliy urf-odatlar va an’analar, ijtimoiy va siyosiy vaziyatga ham bevosita bog‘liqdir. Hozirgi kunda ekoturizm, turizm industriyasining 25% qamrab olgan bo‘lib, o‘shish tendensiyalari bo‘yicha ilgari bormoqda. Jahonda ekoturizm sohasida ajralib turgan 4 maktabni ko‘rsatish mumkin. Bular Amerika, Avstraliya, nemis va Meksika maktablari bo‘lib, ularning ekoturistik faoliyatga bo‘lgan munosabatlari o‘zlarining turli-tumanligi bilan ajralib turadi.

Ekoturizm geografiyasi umumiy turizmdan o‘zgacha bo‘lib, an’anaviy sayyohlarning asosiy oqimi rivojlangan davlatlarga yo‘nalgan ya’ni Fransiya, AQSh, Ispaniya va Italiya davlatlari yetakchilik qilsa, ekoturistlar esa ko‘p hollarda rivojlangan davlatlardan rivojlanayotganlariga bormoqda.

Turizm industriyasi o‘ziga katta sarmoya va resurslarni mujassamlashtirish bilan bir qatorda mustaqil davlat va jamiyat uchun zarur bo‘lgan ma’naviy-ma’rifiy funksiyalarni bajaruvchi iqtisodiyot tarmog‘idir. Ekoturizm orqali chet ellik

mehmonlar O‘zbekistonning boy va betakror tabiati haqidagi tasavvurga ega bo‘lsalar, O‘zbekiston fuqarolari o‘z Vatani bilan yaqindan tanishadilar. Ularda ona yurtiga nisbatan milliy iftihar hamda g‘urur tuyg‘usini shakllantirish imkoniyatining tug‘ilishini aytib o‘tishning o‘zi kifoyadir.

Ekoturizm va uning rivojlanishi nafaqat o‘rganilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga bog‘liq bo‘libgina qolmasdan, balki shu hududning tabiiy sharoitiga, unda ekoturistik ob‘yektlarning mavjudligi hamda ularning geografik o‘rniga ham bog‘liqdir. Chunki, tabiiy sharoit xususiyatlari hududning ekoturistik imkoniyatlari va uning qaysi turlarini rivojlantirish mumkinligini aniqlashga imkon beradi.

Parkent tumani o‘zining betakror tog‘ landshafti, soylari va sharsharalari, buloqlari, ko‘llari hamda muzliklari bilan birgalikda ekoturizm markaziga aylanishi mumkin. O‘rtacha balandlikdagi va baland tog‘larimizda yozda haroratning vodiylarga nisbatan 5–10 (harorat) past bo‘lishi, qishining juda ham sovuq emasligi, qalin qor qoplaminin vujudga kelishi ushbu hududlardan yil davomida ekoturizm maqsadlarida foydalanish imkoniyatini beradi.

Ayniqsa, geografik o‘rni qulay, tabiiy sharoiti va ekoturistik imkoniyatlari xilma-xil bo‘lgan, sanoat rivojlangan va aholi zich yashaydigan Toshkent shahri va viloyatida Parkent tumani ekoturlariga talab yuqoriligi bilan ajralib turadi.



45-rasm. Parkent tabiati.

CHOTQOL BIOSFERA QO‘RIQXONASI

Chotqol biosfera qo‘riqxonasi — Toshkent viloyatining Parkent tumani tog‘li hududida, Chotqol tog‘ tizmalarining janubig‘arbida joylashgan. O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining 1990- yil 21-iyundagi qarori bilan Chotqol qo‘riqxonasi (1947) negizida Ugom-Chotqol davlat pgabiat milliy bog‘i tashkil etilishi munosabati bilan uning jan. qismida alohida qo‘riqlanadigan hudud tarzida ajratilgan.

Mazkur tabiat ob‘yekti Toshkent viloyati tabiatini muhofaza qilish boshqarmasiga qaraydi. G‘arbiy Tyanshanning ulkan va noyob o‘simliklari, hayvonot hamda qushlarini o‘rganish, saqlab qolish va ko‘paytirish maqsadlarida ish olib boradi. Umumiy maydoni 9900 ga yaqin.

Qo‘riqxonada hududi sharqda deyarli Namangan viloyati, janubi-g‘arbda Ohangaron tumani tog‘li hududlariga yaqin boradi. Rel‘efi har xil balandliklar (1100–4000 m), qoyali cho‘qqilar va tik qiyaliklar bilan tavsiflanadi. 1000–1500 m balandlikda lyossimon tuproqlar, undan yuqorida tog‘ o‘rmon va o‘tloqi tuproqlarning turli shakllari rivojlangan. Iqlimi kontinental, yanvar oyining o‘rtacha harorati – 7°, iyul oyiniki 23–25°, yillik yog‘in miqdori 700–800 mm.

Qo‘riqxonada hududidagi asosiy suv havzalari Boshqizilsoy, Shovvasoy va ularning irmoqlari. Qo‘riqxonada o‘simliklarning 1300 ga yaqin turi, shu jumladan, dorivor o‘simliklardan jenshen, tog‘ yon bag‘irlarida 40 dan ortiq daraxt va buta turlari o‘sadi.

Asosiy daraxtlari tol, terak, qora archa, savur archa, yong‘oq, pista, qayin, zirk, chetan, do‘lana, yovvoyi olma, tog‘olcha va b. Hayvonot dunyosida 30 dan ortiq sut emizuvchilar turi, shu jumladan, tog‘ qoplani, qo‘ng‘ir ayiq, tog‘ echkisi, yelik, tulki, bo‘rsiq, qobon (yovvoyi cho‘chqa) va b., qushlarning 140 dan ortiq turi – bedana, qirg‘iy, qora laylak, kaklik, qumri va b. (qushlardan qora laylak, qirg‘iy uya qurib bola ochadi), umurtqasizlarning 19 turi uchraydi²⁵.

²⁵ https://toshvil.uz/oz/chatkal_forest.



46-rasm. Qo'riqxonada tabiati.

SO‘QOQDAGI O‘RMON XO‘JALIGI

Ushbu o‘rmon xo‘jaligi 1977- yilda Parkent tumaning sharqiy tog‘li qismida, tog‘ o‘rmonlari hamda dorivor, ziravor o‘simliklarni muhofaza qilish



maqsadida tashkil etilgan. Umumiy yer maydoni 22016 bo‘lgan xo‘jalikning 6733 gektari o‘rmonlar bilan qoplangan. Unadan 4466 gektar tabiiy, 96 gektari ekilgan o‘rmonlardan iborat.

O‘rmon xo‘jaligida turli xil daraxtlar –archa, yong‘oq, yog‘ochbop teraklar hamda ermon, na‘matak, ravoch, mador, qoqi o‘t, kiyik o‘ti, dala rayhon, bo‘znosh kabi 200 turga yaqin giyohlar o‘sadi. O‘rmonlarni kengaytirish yer sathini eroziyadan himoyalash, sel havfini kamaytirishda katta ahamiyatga ega.

O‘rmon xo‘jalikka tashrif buyurgan sayyohlar musaffo o‘rmon avosidan to‘yib nafas olishlari, xushmanzara tabiat go‘zalligidan bahra bo‘lish bilan birga mahalliy mashhur milliy taomlar – Mador somsa va So‘qoq shashliklarini tatib ko‘rishlari mumkin.





47-rasm. So'qoq somsalari va kaboblari.

“FIZIKA-QUYOSH” INSTITUTI

Parkentdan 8 km sharqda, Quyosh qishlog‘i yaqinida noyob ilmiy majmua – “Fizika-Quyosh” instituti joylashgan. Bunday maskan dunyoda faqatgina ikkita: Fransiya va O‘zbekistonda mavjud bo‘lib, bu yerda quyosh energiyasi to‘planadi hamda yangi materiallar olish hamda kosmik kemalarning tashqi qoplamasini sinab ko‘rish uchun ishlatiladi.

Ushbu institut O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yirik ilmiy muassasasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Fizika-texnika instituti tomonidan 1987- yilda ishga tushirilgan. Institut tarkibida 1993- yilda Materialshunoslik instituti tashkil etildi. Mazkur institut olimlari tomonidan qiyin eriydigan materiallarni sintez qilish, chiniqtirish, nodir metallarni olish hamda yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Birlashma dargohida tadqiqotlar va tajriba namunalarini ishlab chiqarish uchun zarur shahmat shaklida joylashag 62 geliostat, 1000 kVt quvvatli quyosh energiyasini konsentratlovchi optik-mexanik qurilma, avtomatik boshqaruv tarmog‘i va boshqa moslamalar mavjud²⁶.


Ushbu inshoot bejizga Parkent tumanida joylashgan emas. U ishonchli monolit tektonik plastinka ustiga barpo etilgan bo‘lib, bu ob‘yektni zilzilaga chidamliligini ta‘minlaydi. Qolaversa, bu yerda quyosh yiliga o‘rtacha 300 kun charaqlab turadi va Quyosh qishlog‘i joylashgan balandlik ob‘yektga quyosh nuri tushishi uchun eng qulay hisoblanadi.

“Fizika-Quyosh” institutida turli tadqiqotlar olib boriladi. Asosiy vazifa — muayyan vazifalar uchun maxsus xususiyatlarga ega yangi materiallarni olish. Ular asosan qiyin eriydigan nometall oksidlardan, masalan, sirkoniy yoki alyuminiydan olinadi. Bunday materiallarni boshqa sharoitlarda ishlab chiqarish qiyinroq kechadi. Institutda buni qilish osonroq, chunki quyosh pechkasi juda yuqori haroratda erishishga imkon beradi.

²⁶ Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани.... – Б. 135.



48-rasm. Ushbu inshoot dunyodagi eng katta pech hisoblanadi. Uning faoliyati uchta tarkibiy majmua: 62 geliostat, konsentrator va pechning o‘zidan tashkil topadi.



49-rasm. Inshoot tomi markazida joylashgan kichik bino esa quyosh pechi bo‘lib, u yerda o‘ta yuqori darajali quyosh nurlari ta’sirida bir materialni boshqasiga aylantirish borasidagi barcha ilmiy “sehrlar” sodir bo‘ladi²⁷.

²⁷ <https://www.gazeta.uz/> malumotlari hamda fotosuratlaridan foydalanildi.

Institutda nimalar qilish mumkin? Ekskursiyalarda qatnashish. Muassasagidlarilari ilmiy-ma’rifiy ekskursiyalar tashkil etishadi. Bundan tashqari, interaktiv turlar ham mavjud. Ulardan biri quyosh pechida metall va toshlarni eritib, quyosh oshxonasida ovqat pishirishni taklif qiladi. Shuningdek, teleskop orqali yulduzlar va sayyoralarni kuzatish uchun institutga tungi sayohatga borish ham mumkin. Ob’yekt dengiz sathidan 1000 metrdan ortiq balandlikda joylashgani uchun tungi osmon musaffo, yulduzlar yorqin.

Arxitekturasini tomosha qilish. Bosh bino foyesida “Quyoshga madhiya” nomli ulkan shisha qandil e’tiborni tortadi. Uning vazni uch tonnani tashkil etadi. Asar muallifi 1966–1985- yillarda Toshkentda yashagan litvalik vitraj rassomi Irena Lipenedir. “Quyoshga madhiya” Boltiqbo‘yi qahrabosi va Bogemiya oynasidan tayyorlangan. Zinapoyaning yonida Lipening yana bir shishali installyatsiyasi – “Sayyoralar paradi” joylashgan.



Konsentratorga faqat piyoda chiqib borish mumkin – lift ishlamaydi. Bu xuddi 12-qavatga ko’tarilgandek gap. Zinapoya ancha ishonchli, keng va tutqichli. Yo’lda tog’lar, dalalar, o’rmonlar, qo’shni qishloqlarning go’zal manzarasi namoyon bo’ladi. Geliostatlarning birinchi qatori orqasida ichiga botiq oynali

qurilma mavjud. Uning oldida turilsa, undagi aks xuddi egri oynadagi kabi bo‘ladi. Bu joy minglab selfilar uchun dekoratsiyaga aylandi. Geliostatlar yonida poligon joylashgan bo‘lib, u yerda qiziqarli ekskursiyalar o‘tkazish, taomlar tayyorlash mumkin. Xuddi shu oynalar va quyosh nuri yordamida bir necha soniyalar ichida choy qaynatish, kabob pishirish mumkin. Ob‘yekt hududiga kiraverishda quyosh pechida eritilgan minerallar: granatalar, shpinellar, yoqutlar sotiladi²⁸.




50-rasm. Konsentratordan atrofning ko‘rinishi.

²⁸<https://www.gazeta.uz/> malumotlari hamda fotosuratlaridan foydalanildi .

QISHLOQ TURIZMI

Qishloq turizmini rivojlantirish dunyoning global tendensiyalaridan biridir. Mazkur yo‘nalishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan 2020-yilni “Qishloq va ekologik turizm yili” deb rasman e‘lon qilinganligi qishloq hududlariga tashrif buyurishga nisbatan sayohatchilarning e‘tibori yanada ortdi va bu qishloqlarni rivojlantirishga sezilarli xizmat qildi. Ayni paytda O‘zbekistonda ham ushbu sohani rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib, bu o‘z navbatida qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, qishloq aholisining bandligi va daromad manbalarini ko‘paytirish, qishloqda aholining qashshoqligini bartaraf etish, shuningdek, qishloq infratuzilmasini tubdan yaxshilash uchun investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda ushbu turizm turining yagona ta‘rifi mavjud emas, ammo dunyo miqyosida mazkur yo‘nalishga quyidagicha ta‘rif berilgan: qishloq turizmi (agroturizm) – *bu fuqarolarning doimiy yashash joyidan qishloqlarga tashrif buyurib, qishloqdagi mehmon uylari, fermer xo‘jaliklari uy-joylarida joylashish va vaqtinchalik yashash joyidagi manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lmagan faoliyat bilan shug‘ullanmaydigan turistik maqsadlardagi sayohatdir*²⁹.



51-rasm. Qishloq joylaridagi tog‘ yonbag‘rlari.

²⁹ Уланов Д. А. Туризм на сельских территориях: опыт, проблемы, перспектив....ст-58.

Qishloq turizmi shahar shovqinidan charchagan odamlarga nafaqat qishloqda dam olish, shuningdek, tabiatga yaqinroq bo'lish, toza tabiiy muhitdan kuch-quvvat olish hamda qo'shimcha tarzda tarixiy, madaniy, etnografik va madaniy meros obyektlari hamda mahalliy urf-odatlarini o'rganish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, sayyohlar qishloqda mintaqaga xos hunarmandchilik, mahalliy aholi kiyimlari, oshxonasi bilan tanishishi, mahalliy til yoki shevani o'rganishi, havaskor suratga olishlari, mevalar va shifobaxsh o'tlarni terish kabi o'ziga xos sevimli mashg'ulotlar bilan shullanishlari mumkin.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda qishloq joylarida turizm sohasini faol rivojlantirish orqali mamlakatimizning ko'plab hududlarida qishloq aholisining muqobil bandligi ta'minlanmoqda. Bu esa, shubhasiz, ushbu yo'nalishni yurtimiz aholisining turmush tarzini yaxshilashda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Qishloq turizmi, boshqacha qilib aytganda, agrar turizm bugungi kunda quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

- qishloq joylardagi ekologik toza hududlarda uy va xonalarni ijaraga berish;
- turistlarni qishloq (fermer) mehmon-uylariga joylashtirish va ovqatlantirish bilan birgalikda “qishloq” bo'ylab sayohatlarni tashkil etish, an'anaviy qishloq hayoti, hunarmandchilik bilan tanishtirish;
- an'anaviy me'morchiligiga ega bo'lgan mavjud qishloqlar negizida ***turistik qishloqlar*** yaratish.

Qishloq turizmining yana bir afzalligi bu joylarda dam olish boshqa turizm turlariga nisbatan arzonligi hisoblanadi. O'rta daromadli sayyohlar tabiat qo'ynida dam olishi, dehqon oilasi hayoti bilan yaqindan tanishishi, yangi sabzavot va mevalar, go'sht va sut mahsulotlarini tatib ko'rish bilan birga qishloq xo'jaligi ishlarida bevosita ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, bolalar uchun uy hayvonlarga ovqat berish, ular bilan o'ynash va ularni o'rganish, mevalar terish juda maroqlidir.



52-rasm. Chorva mollari.

Qishloq turizmi – qishloq aholisi tomonidan o‘z xonadonlari negizida tashkil etilgan mehmon uylari va shaxsiy tomorqa, shuningdek, dehqonchilik uchun ajratilgan yer uchastkasida dam olish tushuniladi. Turistlarga yotoq, oziq-ovqat va qishloqning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirishni ta’minlovchi qishloq oilasidir.

Ushbu sohani rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60 sonli Farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi maqsad va vazifalar ishlab chiqilgan. Mazkur Farmonning maqsadlariga ko‘ra, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida hududlarda xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko‘rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo‘nalishda jami 3,5 million yangi ish o‘rinlarini yaratish vazifalari qo‘yilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifalari qo‘yilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda qishloq turizmini rivojlantirish muhim omil sanaladi.

Toshkent viloyati Parkent tumanidagi agrar hududlari doimo ichki va xorijiy sayyohlarning e'tiborini tortadi. Bahorda bu yerda lolaqizg'oldoq maydonlari qizil tusga kiradi va selfi ixlosmandlari hamda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarini o'ziga jalb qilsa, kuzda esa mazkur hududda uzum yig'im-terimi va an'anaviy ko'pkari musobaqalari o'tkaziladi.

Parkent tumanida o'ziga xos ko'rinishi va kundalik hayoti bilan ajralib turadigan ko'plab so'lim tog' etaklarida joylashgan qishloqlari mavjud. Ma'lumki, "Qishloq" so'zi umumturkiy "qish" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, va tom ma'noda "qishlash", cho'ponlarning qishki dam oladigan va ularning podalari turadigan joyi" ma'nosini bildiradi. Qadimiy qishloqlar aholining mavsumiy manzilgohlaridan tashkil topgan.

Parkent tumani va uning atrof hududlari qadimiy aholi manzilgohlaridan biri bo'lgan. Arxeologik ma'lumotlarga qaraganda, bu yerlarda ilk inson paleolit davrida paydo bo'lgan. Geografik nuqtai nazardan olib qaraganda, Parkent tumani Toshkent shahridan 48 km sharqda, O'rta Tyanshanning Chotqol tog' tizmalarining g'arbiy etaklarida joylashgan.

Parkent tumani hududida 25 ta qishloq aholi punkti joylashgan. Shulardan ayrimlarining joylashuvi, tabiati, turistik imkoniyatlariga quyida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Mashhur **Shampan** qishlog'i Parkentdan 16 km janubi-sharqda, Sanganaksoy va Ugamsoyning oralig'ida joylashgan. Qishloq 1947- yilda paydo bo'lgan. Uning atrofidagi hududlarda vinobop uzumlar yetishtirilishi va shu davrda qurilgan vino zavodida uzumlarning qayta ishlanishi sababli qishloq Fransiyaning Shampan viloyati nomi bilan atalgan³⁰.

³⁰ Yakubjonova Sh. T., Urinova N. S. Parkent tumanida eko-agroturizmni rivojlantirish istiqbollari // Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723




53-rasm. Parkent tumani qishloqlari tabiati.



54-rasm. Parkent qishlog'i.

Tuman markazidan 18 km janubi-sharqda, Chotqol tog‘ tizmalarining g‘arbiy etaklarida hamda So‘qoqsoy daryosining sohillarida joylashgan **So‘qoq qishlog‘i** o‘zining zilol suvli buloqlari bilan mashhurdir. Hozirda ushbu qishloqdagi “Chashma” bulog‘i sayyohlarning sevimli joyiga aylangan. “So‘qoq” dam olish maskani o‘zining qulay ob-havosi, xushmanzara tabiati, shifobaxsh muqaddas buloq suvlari bilan nafaqat mamlakatimiz, balki qo‘shni davlatlarda dong taratgan. Ko‘plab sayohatchilar bu yerga mashhur bo‘lgan So‘qoq gastronomik brendlari hisoblangan “Ko‘k somsa”, “Mador somsa”, shuningdek, “So‘qoq kabobi” kabi taomlaridan bahramand bo‘lish maqsadida keladi.

Shuningdek, bu yerda tayyorlanadigan “So‘qoq kabobi” o‘ziga xos kulinariya brend bo‘lib, bu mahalliy qo‘ylarning tog‘ giyohlarini iste‘mol qilganligi sababli ularning go‘шти juda yumshoq, mazali va hatto shifobaxshligi bilan bog‘liq.



55-rasm. Soy suvlari.

Ushbu hududda turizmning muhim turlaridan biri bo‘lmish **qishloq gastronomik turizmni** rivojlantirish yaxshi samara beradi. Ushbu tarmoqning asosiy maqsadi, shahardan uzoqda, tabiatga yaqin joyda yashash, qishloq hayotini o‘rganishdir. Bunday sayohatlardagi sayyohlarning faoliyati qishloq aholisining oddiy hayotini aks ettiradi: tabiat va hayvonlar bilan doimiy aloqada bo‘lish, uy ishlari, yig‘im-terim, o‘zlari yetishtiradigan hamda dunyo bo‘ylab tarqaladigan an’anaviy taomlarni tayyorlash, ularning joyiga borib kuzatish va bevosita yig‘im terim jarayonlarida qatnashish sayyohlar uchun o‘zgacha zavq beradi.

Ushbu imkoniyatlar gastronomik turizm sohasida yetarlicha rivojlanish va o‘sish istiqbollari ko‘rsatadi.



56-rasm. So'qoq sinchkor uylari.

Changi qishlog'i Parkentdan 8–10 km shimoli-sharqda joylashgan bo'lib, qishloqning qoq o'rtasidan Parkentsoy oqib o'tadi. Ushbu qishloqda qariyb 10000ga yaqin aholi yashaydi. Changi qishlog'ida mehnatkash, saxovatpesha, samimiy insonlar istiqomat qilib, ular asosan, dehqonchilik, uzumchilik, bog'dorchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Tabiati o'ziga xos bo'lgan Chang'i qishlog'ida qariyb 2000 ta xonadon mavjud. Aksariyat sinchkor uylar tepaliklarda qurlgan. Har-bir xonadon egalari o'zlarini tomorqalarida uzum ekishadi. Uzum hosilidan esa mayiz, sharob, uzum murabbolarini tayyorlashadi.

Qishloqda o'tgan asrning 80-yillarida qurilgan "Quyosh" majmuasi hali ham o'zining hayoliy "kosmik" ko'rinishi bilan sayyohlarni hayratda qoldiradi. Shuningdek, qishloq o'zining "Sumcha" dam olish uyi, yozgi oromgohlari, Qo'tirbuloq, Chashma, Kosibjonbuva, Chinor, Ko'chkakbuloq kabi buloqlari bilan mashhurdir.

Sayyohlar orasida yuqori darajada ommaboplikka ega bo'lgan industrial merosning noyob obyekti (Fizika-Quyosh IChB), agrar turizmining qiziqarli manzillari atrofida joylashgan.

Har kuni "Quyosh instituti"ga ham O'zbekiston aholisi, ham uzoq va yaqin xorijlik sayyohlar ekskursiyalar bilan tashrif buyuradi. Tashrif buyuruvchilar ushbu binoni "Fantastika olami"dan ko'rish va suratga olishga intilishadi, ularning ijtimoiy tarmoqlar hamda videoservislar orqali efirga uzatilayotgan taassurotlari esa yangi xohlovchilarni jalb qilishga yordam bermoqda. "Quyosh fizikasi" IChBsi vakillarining statistika ma'lumotlariga ko'ra, oyiga tashrif buyuruvchilar soni 10 ming kishiga yetmoqda.

Yil sayin tashrif buyurishni xohlovchilar soni ortib borayotgani quvonarlidir. Bu shuni anglatadiki, ushbu ilmiy obyektning turistik diqqatga sazovorligi yaqin atrofda joylashgan hududlar uchun istiqbolli imkoniyatlar yaratadi.



57-rasm. “*Quyosh fizikasi*” instituti majmuasi.


Yana bir ommabop qishloq – ***Kumushkonni*** e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Bu yerda sayyohlar xushmanzara tog’ manzaralaridan bahramand bo‘lib, Hazrati Ali Buva masjidini ziyorat qilishlari mumkin. Shuningdek, sanatoriy, pansionat, mehmonxonalarda dam olish imkoniyatlari mavjud. Bu yerdan sayyohlar Aqsaqota va Nurekota daryolari vodiysini oshib o‘tib, Syurenat cho‘qqilari (2042 m), tumanning go‘zal ikki boshli hukmron cho‘qqisi – Qizilnur (3289 m)ga chiqib, faol dam olishlari mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori bilan “Kumushkon” MFY hududida turizm qishlog‘ini tashkil etishga oid chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi.

Tumanda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2021–2022- yillarga mo‘ljallangan jami qiymati 66,6 milliard so‘m bo‘lgan 3 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilishi natijasida 40 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Jumladan, Kumushkonda Respublikada birinchilardan bo‘lib “Turizm qishlog‘i” loyihasi amalga oshirila boshlangan.

Sababi shundaki, ushbu qishloq nafaqat Parkent tumani, balki Toshkent viloyatida ham ziyorat va turizmning faol turlarini rivojlantirish imkoniyatlari

kengligi bilan ajralib turadi. Ushbu manzil o‘zining toza havosi, go‘zal tabiati va ziyoratgohlari bilan sayyohlarni o‘ziga chorlaydi. Hozirgi kunda bu yerda alohida yo‘nalishlar bo‘yicha – etnoqishloq, milliy taomlar qishlog‘i, hunarmandlar qishlog‘i hamda agroturizm qishlog‘i yaratilmoqda. Shu bilan birga, mehmon uylari, xalq kutubxonasi, yoshlar ijodiyot markazi, xalq o‘yinlari va sport namoyishlari maydonchasi, o‘tovlar shaharchasi, turizm axborot markazlari, suvenirlar hamda hunarmandchilik mahsulotlari do‘koni, zamonaviy sanitariya-gigiena shaxobchalar, sayyohlar uchun tibbiy xizmat ko‘rsatish shoxobchasi, 16 ta oilaviy mehmon uylari hamda mavsumiy dam olish maskanlari faoliyat yuritmoqda.



58-rasm. Kumushkon qishlog‘i.

Zarkent qishlog‘i yaqinidagi daralardan birida bir nechta g‘or mavjud. Ulardan eng yirigi (Zarkent) 102 metr chuqurlikka boradi va oqim oqib o‘tadigan toshli-katta bo‘lakli to‘siq bilan tugaydi. Ehtimol, ushbu soy yer ostidan 5 km dan ortiq masofani bosib o‘tib, muqaddas Zarkent ota bulog‘ida yer yuzasiga chiqqan bo‘lishi mumkin.




59-rasm. G'or.

Parkent tumanining janubiy-sharqiy qismidan oqib o'tuvchi Boshqizilsoy Qizilsoyning o'ng qirg'og'ining quyi oqimida Nevich, Namdanak, Novdak, Shampan, Qoratuxum, Qangli aholi punktlari joylashgan. Soyning chap qirg'og'ida esa, Chavlisoy mavsumiy irmog'i qo'shilgan joyda, Krasnogorskiy shahar tipidagi aholi punkti mavjud. Qadimda ushbu soy bo'ylaridagi so'lim maskanlarni odamlar makon tutishgan. Boshqizilsoy tog'li, so'lim joy hisoblanib, chashmalardan, irmoqlardan oqib kelayotgan suv hisobiga Boshqizilsoy tashkil topgan. Nevich qishlog'i yaqinidagi Boshqizilsoy daryosidagi xushmanzara kanyon sayyohlar orasida juda mashhurdir.



60-rasm. Nevich qishlog'i.



61-rasm. Boshqizilsoy xushmanzara kanyoni.

GASTRONOMIK TURIZM

Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotiga ko'ra, turizm sohasi Yaqin Sharqda 8 foiz, Osiyo va Tinch okeani mintaqasida 5 foiz, Yevropa va Afrika qit'alarida 4 foiz va nihoyat Shimoliy va Janubiy Amerikada 2 foiz o'sgan³¹. Ayni damda turizm geosiyosat mavhumliklari va bozorlarning sekinlashuviga qaramay, barqaror ekanini namoyish qildi. Ushbu soha kuzatuvchilari sayyohlik va turizm iqtisodiy rivojlanishning drayveri – harakatlantiruvchi kuchi ekani haqida yakdil fikr bildirmoqda. Shu asnoda turizm bozori dunyo miqyosida shiddat bilan o'sib bormoqda. Mamlakatlar o'zaro raqobatda yangi turistik obyektlarni yaratishga, mavjud turistik obyektlardan unumli foydalanishmoqda. Turizm yo'nalishlaridan biri bu gastronomik turizm bo'lib, keng tarqalgan sohalardan biri hisoblanadi. Sayohat davomida mahalliy taomlarni tatib ko'rish ishtiyoqi tabiat qo'ynida sayohat qilish va me'morchiliklar zavq olish bilan barobardir. Yana bir muhim jihati shuki, sayyoh turizmning qay yo'nalishi bo'ylab sayohat qilmasin, mahalliy taomlarni tatib ko'rishga harakat qiladi.

Gastronomik turizm ("culinary tourism") atamasi birinchi marta 1998-yili AQShning Ogayo shtatidagi Bovling Grin (Bowling Green) universitetining xalqlar madaniyati kafedrasida dotsenti L.Long tomonidan kiritilgan bo'lib, odamlar boshqa xalqlar madaniyatini o'sha xalqning milliy taomlari orqali o'rganishi mumkinligi haqidagi fikrni ilgari surgan. Gastronomik turizm – bu, ma'lum bir mamlakatning milliy oshxonasi, mahsulot va taomlarini tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish maqsadida o'sha mamlakatga turistik sayohatni amalga oshirishdir. Gastronomik turizmning tarixi uzoq davrlar davomida shakllanganligiga qaramay, Jahon Turistik Tashkiloti (JTT) tomonidan faqatgina 2015-yilda alohida tarmoq sifatida ajratildi. JTT mutaxassislari 156 ta mamlakatda gastronomik turizm bo'yicha o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlar 88,2%

³¹ Jahon Turizm tashkilotining rasmiy veb-sayti ma'lumotlari: <https://www.unwto.org/gastronomy-wine-tourism>

bilan gastronomik turizm o'z mamlakatlari turizm industriyasining strategik elementi sifatida ko'rishlarini ta'kidlaganlar³².

Jumladan, Parkent tumani ham mamlakatimiz gastronomik turizmida o'z o'rniga ega hududlardan biri hisoblanadi. Parkent uzumlari, So'qoq kaboblari, o'ziga xos mazaga ega Parkent patirlari va Mador, Ko'k somsalari to'g'risida eshitib, ularni tatib ko'rmagan o'zbekistonliklar bo'lmasa kerak. Shuningdek, Toshkent vohasiga tashrif buyurgan har bir sayyoh Parkent tog'lari, Chotqol biosfera qo'riqxonasi, So'qoq o'rmoniga, Quyosh institutiga, mashhur Zarkent va Machit Ali ziyoratgohlariga kelmasdan ketmaydi. Albatta, ular yo'l-yo'lakay Parkent kaboblarini tatib ko'rib, yo'l-yo'lakay Parkent uzumzorlaridan bir shingil uzum yemasdan ketmaydi.

Parkent uzumlari- Toshkent viloyatining bahovo, xushmanzara tumani bo'lgan Parkent xaqida so'z ketganda hammaning ko'z oldiga mashhur Parkent uzumlari kelishi aniq. Tumanga tashrif buyurar ekansiz, yo'l bo'ylab yastaniib yotgan uzumzorlarga ko'zingiz tushadi. Dengiz sathidan 900 metr balandlikda joylashgan uzumzorlarda mashhur Parkent uzumlari yetishtiriladi.

Bozor rastalari uzumning turli navlarini bilan to'kin-sochin. Rizamat, Oq kishmish, Qora kishmish, Hasangi, Husangi, Toypi, Echkiemar, Kattaqo'rg'on, Buvaki, Shampan, Miskat, Tarnov kabi uzum navlarisanab sanog'iga eta olmaysiz. Qora qishmish, Avatar, Mers, Kepak, Samarqand, Kishmish kabi uzum navlari quyosh nurida quritib, mayiz tayyorlanadi. Mehnatsevar Parkentliklar xalqimiz dasturxonini yil davomida uzum bilan ta'minlab beradi. Parkent uzumlari shirinlik darajasiga ko'ra yuqori turadi. Vinochilik uchun Soyaki, Miskat, Shampan, Tarnov, Toypi kabi uzum navlaridan foydalaniladi.

Mazasi tilni qirq yordigan Parkent uzumlari bugungi kunda xorijiy davlatlar dasturxoniga ham yetkazib berilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyo respublikalari, Rossiya, Xitoy, Koreya, Yaponiya kabi davlatlarga uzum va mayiz ko'rinishlarida

³² Navro'z-Zoda B.N., Narziyev M.M. Buxoro viloyatida gastronomik turizm klasterini shakllantirish imkoniyatlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali.3/2022.402-bet.

eksport qilinmoqda. Bu esa avvalo Parkent tumani aholisining iqtisodiy rivojlanishiga, tumanning eksport salohiyati oshishiga xizmat qilmoqda.

Parkent tumani uzumzorlari atrofida dam oluvchilar uchun dala hovlilar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, oilaviy dam olish, turli taomlarni tayyorlash, tog‘ havosidan nafas olish, sayohat qilish, shuningdek, basseynida cho‘milib dam olish mumkin. Asosan, respublikamiz va qo‘shni mamlakatlardan keluvchi sayyohlarga xizmat ko‘rsatilmoqda.



62-rasm. Parkent uzumlari³³.

³³ Manba: <https://agro-olam.uz/>



Parkent kaboblari- serviqor tog' yaylovlarida turli dorivor o'simliklarni iste'mol qilgan qo'y-qo'zilar go'shtidan tayyorlangan Parkent kaboblari mazasi bilan boshqa hudud kaboblaridan ajralib turadi. Kaboblarni tayyorlashda sara qo'y, mol va tovuq

go'shtlaridan foydalaniladi. Ayniqsa barra qo'zi go'shtlaridan tayyorlangan

kaboblar yumshoqligi va betakror mazasi bilan ajralib turadi. So'qoq kaboblari avgust oyida tog'dan semirib tushgan qo'zi go'shtlaridan tayyorlanadi.



Go'shtni kabob tayyorlash uchun turli ziravorlar, kivi, limon bilan yaxshilab aralashtirilib,

tayyorlanadi. Tayyor go'sht sixga tortib, yaxshilab pishiriladi. Kabob bilan birga Parkent qatiqlari, suzma, pomidor va bodringdan achiq-chuchuk, tandirda issiq yopilgan patir nonlar birga iste'mol qilinadi.

Tandirda o'tin bilan pishirilgan Parkent patirlari o'zining mazasi bilan ajralib turadi. Piyozli va yalpizli patirlarni tanlab olishingiz mumkin.



63-rasm. Parkent kabob va patirlari.

ENOTURIZM (VINO TURIZMI)



Enoturizm (Vino turizmi) – sayyohlik, dam olish va sayohatning alohida turi bo‘lib, u sharobni tatib ko‘rish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarilgan joyda sotib olish, vino zavodlari, uzumzorlar, restoranlar, vino festivallari, omborxonalariga tashrif buyurishni o‘z ichiga oladi. Vino turizmi butun dunyoda eng

mashhur dam olish turlaridan biridir.

O‘tgan asrning boshlarida Frantsiya, Italiya, Ispaniya va bugungi kunda u dunyoning barcha vino ishlab chiqaruvchi mamlakatlarida juda mashhurdir.

Vino turizmining afzalligi – mavsumiylikning yo‘qligi va vino ta‘mini milliy taomlar bilan uyg‘unlashtirish orqali gastronomik turizmning parallel rivojlanishidir. Ommabop stereotiplardan farqli o‘laroq, vino turizmi ichish bilan hech qanday aloqasi yo‘q, chunki standart tatib ko‘rish dozasi 30 ml sharobdan oshmaydi. Bu yerda yangi vinolarni qidirish va o‘rganish birinchi o‘ringa chiqadi. Sayyohlar sharoblarni tayyorlash jarayonini tomosha qilishlari va ularni tatib ko‘rishlari mumkin. Bugungi kunda ko‘plab xo‘jaliklar o‘z hududlarida bir kunlik vino turlari va sharobni tatib ko‘rish ekskursiyalarini o‘tkazmoqdalar. Shuningdek, tumanda agroturizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyat mavjudligiga qaramasdan, hozirgi paytda undan yetarlicha foydalanilmayapti.

Hozirda yurtimiz turoperatorlari Parkent tumani turistik resurslaridan foydalangan holda ziyorat, agro, eko, eno, trekking, veloturlarni muayyan sayyohlar uchun taklif qilmoqdalar. Jumladan, Parkent tumaniga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun yangi turistik yo‘nalish sifatida Enoturizm (Vino turizmi) taklif etilmoqda.

Tuman dehqonchiligi g'allachilik, uzumchilik, bog'dorchilik, polizchilik,



kartoshka va hashaki
ozuqa yetishtirishga
ixtisoslashgan.

Parkentning shirin-
shakar uzumi va
mevalari qadimdan
mashhur. Uzumchilik
bilan bog'dorchilik
tuman dehqonlarining

yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Parkent tumanining asosiy boyligi – uning Chotqol tizmasi etaklarida 3 ming gektardan ortiq maydonda barpo etilgan uzumzorlaridir. Ayniqsa, Parkent uzumlari ekologik tozaligi, yuqori shirasi va boshqa xususiyatlari bilan Ozbekistonda va boshqa davlatlarda ham mashhurdir. Tuman uzumzorlarida yuzdan ortiq uzum navlari yetishtiriladi. Nimrang, Soyaki, Muskat, Charos, Vinni, Kaberne kabu vinobop uzumlar, Shivilg'oni, Kishmish, Rizamat, Katta qo'rg'on, Toyifi, Husayni, Hasayni va boshqa ko'pgina xo'raki navlari keng tarqalagan. Uzoq muddat saqlash va harorat o'zgarishiga bardoshli bo'lgan Toyifi, Parkent, Kishmish kabi navlari eksportbopligi tufayli hamisha bozori chaqqondir. Parkent



uzumlaridan bo'lgan mayizlariga ham talab yuqori darajada hisoblanadi.

Ajoyib quyoshli iqlim sharoiti va unumdor tuprog'i hududda nafis uzumdan mo'l hosil yetishtirish imkonini beradi.

64-rasm. Parkent uzumlaridan tayorlangan vino turlari.

PARKENT TUMANIDAGI DAM OLIISH MASKANLARI FAOLIYATIDAN

So‘nggi paytlarda Toshkent viloyati Parkent tumanida mahalliy va xorijlik sayyohlarni ko‘plab uchratish mumkin. Chunki, ushbu tog‘li hududda turizmni rivojlantirish va dam oluvchilarga zarur sharoitlarni yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, bugungi kunda Zarkent, Yozuvchilar uyushmasi, Sayohat sanatoriyalar, “Sumcha”, “Kumushkon”, “Ra‘no Eco Village” kabi dam olish maskanlari faoliyat olib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2021- yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinishi Parkent tumanining turizm salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Oltin halqa” turizm kontsepsiyasining qabul qilinganligi hamda Kumushkon turizm qishlog‘ini tashkil etish chora-tadbirlari jadallashtirilganligi o‘z samarasini bermoqda.

Parkent tumanining betakror tabiati, o‘ziga xosligi sayyohlarni jalb qilishda qo‘l keladi. Xususan, bugun Kumushkon qishlog‘i butunlay o‘zgacha qiyofaga kirgan. Salkam 70 gektar maydondan iborat o‘ziga xos turizm markazining so‘lim tabiati, toza havosi va shifobaxsh suvining dovrug‘i dunyo kezmoqda. Hozirgi kunda Kumushkon turizm qishlog‘ida 23 ta mehmon uyi faoliyat yuritmoqda. Qishloqqa kelgan sayyoh tog‘ bag‘rida shunchaki hordiq chiqarmaydi, balki hududdagi Hazrati Ali Buva ziyoratgohiga ham borib, undan ruhiy ozuqa ham oladi. Shuningdek, xohishiga qarab milliy taomlarning tayyorlanish jarayonida ishtirok etish, buloq suvlaridan ta‘tib ko‘rish hamda tog‘ havosidan to‘yib nafas olish imkoniyatlarga ega.

“Sumcha” dam olish uyi – Parkent tog‘ etaklaridagi to‘liq osoyishtalikni his etish, tog‘ning musaffo havosidan to‘yib nafas olish imkoniyati beradi. Dam oluvchilar bu yerda shovqinli kundalik hayotdan, shahar shovqinidan yiroqlashish, oilaviy dam olishlari mumkin. Shuningdek, malakali oshpazlar tomonidan mazali milliy taomlar taklif etiladi. Dam olish uyidan unchalik uzoq bo‘lmagan joyda

mahalliy bozor mavjud bo‘lib, u erda siz oziq-ovqat sotib olishingiz va o‘zingiz uchun arzon narxlarda kechki ovqat tayyorlashingiz mumkin.

Dam olish uyi hududida choyxona, diskoteka, faoliyat ko‘rsatayotgan katta suzish havzasi mavjud. Katta yashil maydonda piyoda yurish orqali sog‘lig‘ingizni tiklab olasiz. Bu yerda ikkita korpus, ovqatlanish binosi va suzish havzasini o‘z ichiga olgan 220 o‘rinli mehmonxona majmuasi rekonstruktsiya qilingan.



65-rasm. Sumcha dam olish maskani.

Toshkent viloyati Parkent tumaning jozibali dam olish maskanlaridan yana biri **“Ra’no Eco Village”** hisoblanadi. Ushbu so‘lim dam olish maskani Toshkent viloyatining noyob tabiiy hududiga kiruvchi Nomdanak qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, 100 gektardan ziyod maydonni egallagan. Maszur dam olish maskani ekologik toza tabiati, 11 ta noyob suv havzasi, o‘z otxonasi hamda organik meva va sabzavotlar yetishtiriladigan unumdor tuproqli fermer xo‘jaligiga ega.

“Ra’no Eco Village” dam olish maskanida sayyohlar dam olish kunlarida siz go‘zal va boy tabiat, toza havodan bahramand bo‘lishlari, organik mahsulotlar iste‘mol qilishlari hamda hududda yetishtirilgan tog‘ giyohlaridan tayyorlangan choylarni ichishlari mumkin.

Dam olish maskani mehmonlari uchun ekskursiyalar yovvoyi hayvonlardan cho‘chqa va tulkilarni, tuyaqush va turli parrandalarni uchratish mumkin. Shuningdek, bu yerda shifobaxsh choy ichish, stol o‘yinlari, jamoa tuzish va kuniga uch mahal mazali taomlarni ta‘tib ko‘rish kabi tadbirlar tashkil qilinadi.

Hududda yana quyidagi sharoitlar ham mavjud:

- qulay mehmonxona;
- o‘yin maydonchasi;
- so‘rilar;
- yoga markazi;
- futbol va stol tennis maydonlari;
- basseyn, sauna, hammom;
- Indoneziya massaji;
- kedr bochkasi va sog‘lom vannalar;
- kamin maydoni;
- Ekologik yo‘llar bo‘ylab ekskursiya;
- eko ferma;
- Axaltekin otlarida yurish;
- kinoteatr.

Shuningdek, “Rano Eco Village” dam oluvchilarga vazn yo‘qotish uchun muvozanatli sog‘lomlashtirish dasturini taklif qiladi.

Yuqorida qayd etilgan xizmatlarga qo‘shimcha ravishda dastur quyidagilarni xizmatlarni ham o‘z ichiga oladi:

- murabbiylik maslahati;
- shaxsiy ovqatlanish rejasi;
- qo‘shimcha xizmatlar va protseduralar.








66-rasm. “Ra’no Eco Village” dam olish maskanidagi eko ferma.

Zarkent sanatoriyasi – Toshkent viloyati Parkent tumani Qo‘rg‘on MFYda, dengiz sathidan 800 metr balandlikda joylashgan. Mazkur sanatoriya yuqori nafas yo‘llari va asab tizimi kasalliklariga ixtisoslashgan bo‘lib, u eng zamonaviy fizioterapiya apparatlari bilan jihozlangan. Shuningdek, turli xil marjonli vannalar, dush, tuz g‘ori, basseyn, fitobar, kabi muolaja turlari mavjud.

Ushbu sanatoriya 2022-yilda o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lishiga qaramasdan, nafaqat O‘zbekiston, balki qo‘shni respublikalar hamda Rossiya Federatsiyasidan kelib, dam oluvchilar soni yildan-yilga oshib bormoqda.





67-rasm. Zarkent sanatoriyasi.

VELOSIPEDDA SAYOHAT DASTURI

Velosipedda yurish (52 km, ~ 5-6 soat, asfalt). Kumushkonga kelganimizdan so‘ng biz velosipedlarni tushiramiz, ularni har bir ishtirokchi uchun moslashtiriladi. Velosiped yo‘riqchisi marshrut va tog‘li yo‘llarda velosiped haydashning asosiy xavfsizlik choralari haqida qisqacha ma’lumot beradi. Birinchi kun sayohatchilar Tyan-Shan etaklaridagi tepaliklardan, Nevich, Shampan, So‘qoq, Zarkent kabi ekzotik tog‘ qishloqlaridan o‘tishlari kerak. Ushbu hududlarda O‘zbekistondagi mayin quyosh ostida vino uzumining eng yaxshi navlari pishib yetiladi.

Sayyohlar mahalliy aholining uylaridan birida sharobni tatib ko‘rishlari mumkin. Velosiped safari oxiridagi diqqatga sazovor joy – bu noyob “Quyosh fizikasi” Geliokompleksi joylashgan Changi qishlog‘iga tashrif buyurishadi.

Ekzotik tog‘ qishloqlari va keng uzumzorlarning ajoyib panoramalari bilan Chotqol tizmasi etaklari bo‘ylab chigal qirrali yengil yuklangan qishloq yo‘llari yohhlar qalbida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Transfer Parkent-Toshkent (45 km, 1 soat).



68-rasm. Velosipedda sayohat.

“SO‘QOQ TOG‘LARI BILAN TANISHISH” MARSHRUTI

Yo‘lda bizni keng dalalar, bog‘ va uzumzorlar, shaharlar, shahar hamda qishloqlar, tog‘ qishloqlari, gullab-yashnagan tog‘ etaklari, betakror o‘simliklar, ariq va daryolar, tog‘ soylari, “silliq toshlar”, archa va tog‘ o‘rmonlari, oq rangli antiqa shakldagi toshlar ...

7:30. Toshkentda to‘planish – “So‘qoq” qishlog‘i”

Guruh belgilangan joyga yig‘iladi, ishtirokchilarni ro‘yxatga olinadi. Mashina Jumabozor, Namdank, Jambul (Qangli), Shampan qishloqlari bo‘ylab avtomobil yo‘lida harakatlanadi. Yo‘lda biz keng dalalarni ko‘ramiz, biz Qorasuv daryosidan o‘tamiz va Jumabozor qishlog‘idan keyin tepaliklar (adirlar) boshlanadi, bu yerda bahorda juda ko‘p go‘zal o‘simliklarni ko‘rish mumkin. O‘ziga xos rang-barangligi bilan ajralib turadigan qadimiy Namdanak qishlog‘i yonidan o‘tamiz. Bundan tashqari, uzum yetishtiriladigan keng fermalarda va Shampan qishlog‘i hududida ko‘plab uzumzorlarni ko‘rish mumkin.

9:30. “So‘qoq” qishlog‘i – “CHGMOS” o‘rmon xo‘jaligi

Bu yerda, So‘qoq qishlog‘iga yaqin joyda, R. Shreder ilmiy-tadqiqot institutiga qarashli “Chotqol kon-meliorativ tajriba stansiyasi” o‘rmon xo‘jaligiga tutash bo‘lib, u yerda keng hududda ko‘plab daraxtlar o‘sadi. Suniy o‘rmon barpo etilganiga ancha bo‘lgan bo‘lsa, hozirda fermer xo‘jaligi xodimlari tomonidan yangi ko‘chatlar ekish, ushbu tabiiy majmuani muhofaza qilish borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Qirim qarag‘aylari ustunlik qiladigan bu o‘rmon orqali dastlab tuproqli yo‘l o‘tadi. Bu o‘rmonning o‘rtasida stansiya xodimlari uchun bir nechta kabinalar mavjud. Asta-sekin yo‘l tizma tomon ko‘tariladi, u yerda kichik o‘rikzor soyasida to‘xtash mumkin. Tushlikdan so‘ng "qo‘shiq g‘or" deb ataladigan joyga sayr qilish mumkin.

12:30 “Qo‘shiq g‘or” – O‘rmon bilan tanishish

G‘or So‘qoqsoyning o‘ng qirg‘og‘i irmog‘i kanalida joylashgan kichik quduqdir. G‘or juda kichik va unga boshingizni tiqib, chuqur yer ostida qaynayotgan suvning ovozi eshitish mumkin va bir necha metr pastda suv olqish boshlanadi – bu yerda suv yer ostidan chiqadi. Biroz yuqoriga ko‘tarilib, yo‘l

bo‘ylab yana ikkita kichik tizmani aylanib o‘tiladi. Bu yerda bir xil Qirim qarag‘ayining plantatsiyalari ko‘rish mumkin.

Bundan tashqari, bizning hududlarimizga xos bo‘lmagan boshqa ko‘plab o‘simliklar mavjud. “Shreder” ilmiy-tadqiqot instituti qoshidagi “Chotqol kon-meliorativ tajriba stansiyasi” xodimlari yangi turlarni iqlimlashtirish bo‘yicha doimiy ish olib bormoqda. O‘rmon bilan tanishib bo‘lgach, guruh o‘rikzorga qaytadi.

15:00 “O‘rik bog‘ida” dam olish – tog‘ tizmasi bo‘ylab qisqa yurish

G‘or va o‘rmon hududi bilan tanishuv ekskursiyasidan so‘ng dam olish tashkil etiladi. Sayyohlarning iltimosiga ko‘ra, kichik toshli maydon orqali tizma bo‘ylab qisqa yurishni tashkil qilish mumkin. U So‘qoq tog‘larining ulkan kengliklarini ochadi. Bir oz shimolda, tizmalardan birida yana bir “o‘rikzor” bor.

16:00 “CHGMOS” o‘rmon xo‘jaligi – “So‘qoq” qishlog‘i

“So‘qoq” qishlog‘iga qaytish yo‘li xuddi shu yo‘l bo‘ylab o‘tadi va guruh boshida yana “Shreder” ilmiy-tadqiqot instituti qoshidagi “Chotqol kon-meliorativ tajriba stansiyasi” keng o‘rmon xo‘jaligidan o‘tadi. O‘rmon xo‘jaligidan chiqqandan so‘ng “So‘qoq” qishlog‘i boshlanadi, bu yerda siz qishloqning kechki holati, o‘ziga xos rang-barangligi va etnografiyasini ko‘rish mumkin, ya’ni loydan yasalgan uylar, uy hayvonlari, daryoda kir yuvayotgan ayollar, ko‘chada o‘ynayotgan bolalar.

17:30. Toshkentga jo‘nab ketish

Avtomobil bilan jo‘nash xuddi shu yo‘nalish bo‘ylab o‘tadi va “Qorakiya” tepaliklari va tog‘ etaklari orqali juda ko‘p qiziqarli fotosuratlarini olish mumkin.

19:00 Toshkentga yetib kelish

“JETTİKENT – YETTI SHAHAR” MARSHRUTI

Yo‘nalish Toshkent viloyatining Parkent tumanidan o‘tadi. O‘rta asrlarda ushbu hudud “Yetti shahar” degan ma‘noni anglatuvchi Jettikent deb atalgan. Shosh (Toshkent)dan Farg‘ona vodiysiga boradigan yo‘lda bir qancha mustahkam turar-joylar va mulklar, karvonsaroylar, bizga ko‘plab tepaliklar – qadimiy binolarning shishgan xarobalari aytishi mumkin edi. Qadimgi tog‘ oldi qishloqlari yuz yildan ortiq tarixga ega. Bahorda adirlar har xil ranglar bilan qoplangan, ular orasida dasht lolaqizg‘aldoqlari bilan ajralib turadi, uning qip-qizil gullari uzluksiz adirlar – tog‘ etaklarini qoplaydi. Tog‘lar qa‘rida esa Chotqol qo‘riqxonasi joylashgan bo‘lib, u yerda 1947- yildan buyon o‘simlik va hayvonot dunyosining ko‘pligi muhofaza qilinadi. Parkent hududi juda go‘zal, bu yerda tog‘ va tog‘ etaklari, daryo va ariqlar, dalalar, bog‘u tokzorlar, turli qishloq va shaharlarni ko‘ramiz...

8:00–10:00. Toshkent - Qishloq Nevich (60 km – asfalt yo‘l)

Turistlarning ketishi. Yo‘lda Baxt-Rohat qishlog‘i dam olish maskani va “Toshkent gol‘f klubi” yonidan o‘tiladi. Shahardan chiqib ketar ekanmiz, bepoyon dehqonchilik maydonlari – go‘zal bog‘lar va dehqon dalalariga ko‘zimiz tushadi. Qorasuv daryosidan o‘tib, Jumabozor qishlog‘iga boramiz, uning orqasida tepaliklar (adirlar) boshlanadi – G‘arbiy Tyan-Shan etaklari.

Bahorda bu yer (Xandam kanali yaqini)da siz qizil dasht lolaqizg‘aldoqlari o‘sadigan keng efemer o‘simliklarni tomosha qilish uchun to‘xtashingiz mumkin. Keyinchalik, yo‘l qadimiy Namdanak qishlog‘i bo‘ylab boradi va Krasnogorsk (Qizitog‘) shahri chetda qoladi. Namdanak qishlog‘i orqasida qiziqarli zamonaviy bino – tipik sharqiy to‘rtburchak gumbazli me‘morchilikka ega maqbara joylashgan. Shampan qishlog‘iga boradigan yo‘lda, yo‘lning ikki tomoniga tarqalgan uzumzorlarning ko‘pligini ko‘rish mumkin. Shampan vinosidan bizning yo‘limiz tog‘ tizmasi yaqinida joylashgan qadimgi Nevich qishlog‘igacha bo‘lgan yo‘l bo‘ylab uning qo‘shnisi – Sanganak qishlog‘ini ham ko‘rish mumkin. “Qizilsoy” dam olish maskanida to‘xtaymiz.

10:00–14:00 Atrofdagi tog‘larga ekskursiya (200 m balandlikdagi tog‘ yo‘li bo‘ylab 2–3 km chiqish)

Boshqizilsoy petrogliflariga ko‘tarilish oson yo‘l bo‘ylab, asta-sekin ushbu soyning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab ko‘tariladi. Petrogliflar ushbu tosh to‘siqlarning bir nechtasida o‘yilgan va alohida yirik tosh toshlarda ham uchraydi. Umumiy tarqalish maydoni bir necha gektarni tashkil qiladi. Ko‘p yoki kamroq saqlanib qolganlardan yovvoyi otlarni ov qilish sahnasini (maxsus o‘rab olish usuli yordamida), buqa bilan sahnani, kamonli ovchilar va ko‘plab tog‘ echkilari, shuningdek, uy hayvonlari – mushuk va it va boshqalar ko‘rish mumkin.

Suv havzasidan Boshqizilsoy va Parkentsoy manbalariga olib boradigan yo‘l Chotqol qo‘riqxonasining Boshqizilsoy uchastkasi chegarasidan o‘tadi. Ammo, Boshqizilsoy tog‘ daryosiga tushadigan yo‘l orqali yurib, kichik sharshara-yoriq va bu yerda hosil bo‘lgan kichik teskari suvni ko‘rish mumkin. Keyin daryo bo‘ylab pastga tushamiz va dam olish maskani hududida Boshqizilsoyning yon irmog‘ida yana bir kichik sharsharani ko‘rishimiz mumkin.

14:00–15:00 Tushlik (“Qizil-Say” dam olish maskanida)

“Qizilsoy” dam olish maskanida tushlik. Ushbu dam olish maskani Nevich qishlog‘ining yuqori qismida, Boshqizilsoyning o‘ng qirg‘og‘ida, daradan chiqishda daryo qishloq tomonga burilib ketadigan joyda joylashgan. Tushlikdan so‘ng bir guruh sayyohlar keyingi safarga jo‘nab ketishadi.

15:00–17:00 Nevich – Parkent

Biz yana Nevich qishlog‘i, keyin esa Shampandan o‘tamiz. Atrofdagi uzumzorlar esa butun Parkent tumanida bo‘lgani kabi Toshkent viloyatida ham uzumchilikning asosiy tarmog‘ini tashkil etishini ta’kidlash kerak. Shampan qishlog‘ining orqasida Sanganak, Zarkent tog‘lari va tog‘li qishloqlarining ajoyib panoramasi ochiladi, u yerda biz to‘xtab, ko‘rish va suratga olish uchun chiqamiz. So‘ngra yo‘limiz viloyat markazi – Parkent shahriga borib, “Chotqol

qo‘riqxonasi direksiyasi”ga to‘xtab, unga biriktirilgan muzeyga ekskursiya qilamiz. Muzeyda qo‘riqxonaning tarixi, olimlarning mehnati bilan tanishish mumkin. Muzey eksponatlari orasida Chotqol qo‘riqxonasining Maydantal bo‘limidan olib kelingan o‘yilgan petroglifli tosh (Qorazau petrogliflari) mavjud.

17:00 – 18:00 Parkent–Toshkent

Parkentdan Toshkentga Yangibozor qishlog‘i va Qorasuv daryosi orqali o‘tadi. Bu yerda aholi tomonidan ekin maydonlari, uzumzorlar, bog‘lar barpo etilgan.

Uzumzorlarga tashrif buyurish.

Vino zavodiga sayohat davomida mehmonlar ko‘p yillik vinochilik tarixi va Parkent uzumchiligining an‘analari, shuningdek, “Hamkor” saroyining rivojlanish tarixi bilan tanishadilar.

Saralangan vino saqlanadigan yerto‘lalarga tashrif.

Har xil navlarning sharobini tatib ko‘rish: birinchi navbatda, quruq oq – “Riesling”, “Kuljinskiy”, “Soyaki”, “Muskat Iskandariya”; keyin pushti quruq – “Aleatiko”; va oxirida quruq qizil ranglar – Pinot Noir, Saperavi, Xindogni, Cabernet va boshqalar. Tatib ko‘rish paytida mehmonlarga gazaklar - pishloq, mahalliy non ham taklif etiladi.



69-rasm. Parkent vinosi.

“Hamkor” saroyidan uncha uzoq bo‘lmagan joyda go‘zal tog‘li So‘qoq qishlog‘i joylashgan bo‘lib, u yerda siz mazali mahalliy taomlardan: o‘tli ko‘k somsa, sho‘rva, qiyma kabob va palovni tanovvul qilishingiz mumkin.

VI. FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga

molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009- yil 19-sentabrdagi “2010–2020 yillarda nomoddiy meros ob’yektlarini muhofaza qilish, asrab-avaylash, targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat Dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 222-sonli Qarori // www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011- yil 23-maydagi “Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 47-sonli Qarori // www.lex.uz.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014- yil 21 iyuldagi 200-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni yanada takomillashtirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz.

5. 2017–2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Qonunlar hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – 70-modda. / www.lex.uz.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 16- yanvardagi F-5181-sonli “Moddiy madaniy va arxeologiya merosi ob’yektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoyishi // www.lex.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018- yil 15-fevraldagi 120-sonli “Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 31-dekabrda “2019–2021- yillarda Toshkent viloyatida turizm sohasini jadal rivojlantirish to‘g‘risida”gi Qarori. // www.lex.uz.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020- yil 10- iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 433-sonli Qarori // www.lex.uz.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021- yil 24-fevraldagi “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 100-sonli Qarori. / www.lex.uz.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2021- yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6165-sonli Farmoni // www.lex.uz.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi” gazetasi. №19. 25. 01. 2020.

13. Mirziyoyev. Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

Arxiv manbalari:

14. O‘zbekiston Milliy arxivi. 2956-fond, 1-ro‘yxat, 215-ish, 9-varaq.

Adabiyotlar:

15. Бабкин А. Б. Специальные виды туризма. Учебное пособие. – Ростов-на-Дону, 2008.

16. Буряков Ю. Ф., Касымов М. Р., Ростовцев О. М. Археологические памятники Ташкентской области. – Ташкент: Фан, 1973.

17. Вухоро Deklaratsiyasi: O‘zbekiston ziyorat turizmi markazlaridan biri sifatida e’tirof etildi // “Xalq so‘zi”. 2019- yil 23- fevral.

18. Ведомости Верховного Совета СССР. – Ташкент, 1959. – №27 (959).

19. Жўраев З., Масалиева О. Заркентдаги авлиё ота. – Тошкент, 2015.

20. Eshmirzayeva Z. A. Shosh va Iloq yo‘llarida. Toshkent viloyati ziyoratgohlari va qadamjolari. – Toshkent: Press Oltin Meros, 2020.

21. Kabirova B. Tarixiy makonga boy Bo‘stonliq. – Toshkent, 2023.

22. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2010.
23. Markaziy Osiyo tarixi, arxeologiyasi va etnologiyasi masalalari. – Toshkent, 2018.
24. Пардаев М. К., Усманова Д. К. Перспективы развития медицинского туризма в Узбекистане // ЭФО. Экономика. Финансы. Общество. – 2022.
25. Раимкулов А. О трех неизвестных типах христианских культовых сооружений Средней Азии // ИМКУ. – Самарканд, 2004.
26. Резван М. Е. Паломничество как функция транспортного коридора / Центральная Азия. Традиция в условиях перемен. Вып. 3 / Отв. ред. Р. Р. Рахимов., М. Е. Резван. – СПб., 2012.
27. Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР / Под.ред. А. А. Семенова., Д. Г. Вороновского. – Ташкент: Изд. Ан УзССР, 1963. Т. 6. – С. 34–36.
28. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История / Сост. Д. Ю. Юсупова., Р. П. Джалилова. – Ташкент: Фан, 1998.
29. Топол Э. Будущее медицины: Ваше здоровье в ваших руках. – М.: 2016.
30. Toshkent tamaddun tarixi va taraqqiyot istiqbollari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2014.
31. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 1-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2000.
32. O‘zbekiston ziyorat turizmining yangi markaziga aylanmoqda // “Xalq so‘zi”. 2019- yil 22- fevral.
33. Хусомиддинов С., Шерматов М. Паркент тумани. – Тошкент: “O‘qituvchi, 2006.

Internet saytlari

1. https://toshvil.uz/oz/chatkal_forest.
2. <https://shosh.uz/tashkent-2200-pozdnesrednevekovaya-polivnaya-keramika-tashkenta-i-tashkentskogo-oazisa>.
3. <http://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/9817-2021-01-28-08-15-20>.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki>.
5. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/04/06/guide>.
6. Global Muslim Travel Index 2019. Master Card & Crescentrating 2019.
URL: <https://www.crescentrating.com/reports/global-muslim-travel-index-2019.html>.
7. Ecotourism in Uzbekistan: prospects and opportunities. July 18, 2018. Available at: <https://uzbekistan.lv/en/ecotourism-in-uzbekistan-prospects-and-opportunities>.

